

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**“Himoyaga ruxsat etildi”**  
Pedagogika fakulteti dekani,  
f-m.f.n. \_\_\_\_\_  
X. Mavlyanov  
«\_\_» \_\_\_\_\_ 2017- y.

**5111700 -BT va STI ta'lim yo'nalishi  
BT-48-2013-guruh bitiruvchisi**

**Nabiyeva Muazzam Olimjon qizining**

**“SAVOD O'RGATISH TAYYORLOV DAVRI YOZUV  
DARSLARINI TASHKIL ETISH”  
mavzusidagi**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**“Himoyaga tavsiya etildi”**  
Boshlang'ich ta'lim metodikasi  
kafedra mudiri \_\_\_\_\_  
f-m.f.n. T.Abdullayev  
“\_\_” \_\_\_\_\_ 2017-y.

**BMI rahbari: \_\_\_\_\_**  
o'qituvchi  
R. Lutfetdinova

**Namangan – 2017**

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b> .....	4-10
---------------------	------

### **I BOB. SAVOD O'RGATISH TAYYORLOV DAVRI YOZUV DARSLARIDA O'QUVCHILARNI YOZUVGA O'RGATISH MASALALARI VA SHART-SHAROITLARI**

1.1. Savod o'rgatish davrining o'ziga xos xususiyatlari, maqsad va vazifalari.....	11-17
1.2. Savod o'rgatish davrida o'quvchilarni o'qish va yozishga o'rgatish masalalari.....	18-26
1.3. Boshlang'ich sinf savod o'rgatish darsida o'quvchilar nutqiga qo'yilgan talablar. ....	27-35
1.4. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini yozuvga o'rgatish metodlari...	36-46

### **II BOB. TAYYORLOV DAVRI YOZUV DARSLARIDA O'QUVCHILARNI YOZISHGA O'RGATISHNING SAMARALI USULLARI**

2.1. Savod o'rgatishning tayyorlov davri yozuv darslarida zamonaviy usullardan foydalanish.....	47-57
2.2. Ona tili darslarida o'quvchilarni savodli yozishga o'rgatish usullari.....	58-64
2.3. O'quvchilarni to'g'ri va savodli yozishlarida xatolar ustida ishlashga o'rgatish.....	65-69

<b>TAJRIBA ISHLARI VA NATIJALARI</b> .....	70-75
--	-------

<b>XULOSA VA TAVSIYALAR</b> .....	76-77
-----------------------------------	-------

<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI</b> .....	78-79
---	-------

**MAVZU: SAVOD O'RGATISH TAYYORLOV DAVRI YOZUV  
DARSLARINI TASHKIL ETISH**

**REJA:**

**KIRISH.**

**I BOB. SAVOD O'RGATISH TAYYORLOV DAVRI YOZUV  
DARSLARIDA O'QUVCHILARNI YOZUVGA O'RGATISH  
MASALALARI VA SHART-SHAROITLARI**

- 1.1. Savod o'rgatish davrining o'ziga xos xususiyatlari, maqsad va vazifalari
- 1.2. Savod o'rgatish davrida o'quvchilarni o'qish va yozishga o'rgatish masalalari.
- 1.3. Boshlang'ich sinf savod o'rgatish darsida o'quvchilar nutqiga qo'yilgan talablar.
- 1.4. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini yozuvga o'rgatish metodlari.

**II BOB. TAYYORLOV DAVRI YOZUV DARSLARIDA  
O'QUVCHILARNI YOZISHGA O'RGATISHNING SAMARALI  
USULLARI**

- 2.1. Savod o'rgatishning tayyorlov davri yozuv darslarida zamonaviy usullardan foydalanish.
- 2.2. Ona tili darslarida o'quvchilarni savodli yozishga o'rgatish usullari.
- 2.3. O'quvchilarni to'g'ri va savodli yozishlarida xatolar ustida ishlashga o'rgatish.

**TAJRIBA ISHLARI VA NATIJALARI.**

**XULOSA VA TAVSIYALAR**

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.**

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng barcha sohalarda islohotlar amalga oshirildi. Xususan, ta'lim sohasi ham davlat siyosatining ustuvor ahamiyatga yo'nalishlaridan biriga aylandi. "Ta'lim to'g'risidagi Qonun" hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning mazmun-mohiyati hayotga jadal tadbiiq etildi. Respublikadagi uzluksiz ta'lim tizimining shakli bilan mazmuni takomillashib bordi. O'quvchini mustaqil fikrlashga, ijodkorlikka undovchi, faolligini oshirishga xizmat qiluvchi yangi pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonidan o'rin oldi. O'quv mashg'ulotlarini qiziqarli, o'qituvchi va o'quvchi hamkorligiga tayanuvchi o'zaro faol munosabatlar asosida tashkil etishda yangi pedagogik texnologiyadan foydalanish ta'limiy va tarbiyaviy zaruratga aylandi. Qisqa vaqt oralig'ida ta'lim va tarbiyaning yetakchi maqsad hamda vazifalarini amalga oshirish, yuqori samaradorlikka erishishni kafolatlovchi pedagogik texnologiyani boshlang'ich ta'lim jarayoniga tadbiiq etish vositasida o'quvchilar mustaqil fikrlash qobiliyatini, nutqini, kitob o'qish malakasini o'stirish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'z nuqtai nazariga, qarashlariga ega insoniy fazilatlar sohibi sifatida shakllanishi esa ularning hatti-harakatlari, o'z burchiga munosabati, atrofdagilar bilan muloqoti orqali yaqqol namoyon bo'ladi. Shu bois, o'quvchilarning yozma va og'zaki nutqini o'stirish, muloqot madaniyatini egallab borishlarida ta'lim hamda tarbiya imkoniyatlaridan foydalanish ham dolzarb ahamiyatga ega. Mazkur bitiruv malakaviy ishida savod o'rgatish davrida pedagogik texnologiyadan foydalanish orqali dars samaradorligini o'stirish omillari, samarali metod va usullarni qo'llash texnologiyasi asosidagi darslarni loyihalashtirish metodikasi yoritilganligi uning dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» kitobida ta'kidlaganidek: «O'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona

tilining betakror mo'jizasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir.<sup>1</sup>

Respublikamiz ijtimoiy va madaniy hayotida, xalq xo'jaligining barcha sohalarida davlat tilida aniq va pishiq ish olib borish. Fikrni og'zaki va yozma shaklda to'g'ri, ravshan, izchil ifodalay bilish, milliy-ma'naviy qadriyatlarni puxta egallash singari talablar barkamol mutaxassislar tayyorlashning muhim shartidir. So'nggi yillarda pedagogika faniga, ta'lim tizimiga shiddat bilan kirib kelayotgan yangi pedagogik texnologiyalar, innovatsiyalar, yangi-yangi pedagogik-psixologik tushunchalar, interfaol metodlarni, integratsion texnologiyalarni ta'lim beruvchi tomonidan o'zlashtirilib va qo'llanib borilishi, ta'lim mazmunini tubdan o'zgartirib yubordi desak mubolag'a bo'lmaydi. O'quvchilarini fanga ijodkorlik nuqtai-nazari bilan qarashlarini tashkil qilish, ularda izlanuvchanlik xususiyatlarini shakllantirish va albatta, yangi pedagogik texnologiya usullaridan foydalangan holda darsni tashkil etish kerak bo'ladi. Buning uchun esa u bir necha yangicha ta'lim usullarini yaxshi bilishi kerak. Shu yerda birinchchi Prezidentimiz I.A. Karimovning «Biz o'g'il-qizlarimizni o'zlarini anglashga, mustaqil, ongli fikrlashga, ularning tafakkurida bo'shliq vujudga kelishigi yo'l qo'ymasligimiz lozim»<sup>2</sup> degan so'zlarini misol qilib keltirgan holda maktab o'quvchisi, kasb-hunar kollejlari, akademik litsey talabalarining nutq boyligi, uquvliligini oshirishimiz, badiiy va ilmiy adabiyotlarga qiziqishini rivojlantirishimiz, ularning dunyoviy va diniy ilmlardan qay darajada xabardorligini aniqlashimiz kerak bo'ladi. Chunki, ko'p o'qigan va uqqan yoshlarni aldash, milliy g'oyamizga yot bo'lgan g'oyalar sari yetaklash xalqimiz dushmanlari uchun uddalab bo'lmaydigan masalaga aylanadi.

Farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'lom o'sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo'lgan, uygun rivojlangan insonlar bo'lib, XXI asr talablariga to'liq javob beradigan barkamol avlod bo'lib voyaga yetishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o'z

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat engilmas kuch.-T.: Ma'naviyat, 2008yil.

<sup>2</sup> Karimov I.A. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.T., 1998 y.

oldimimizga maqsad qilib qo'yganmiz<sup>1</sup>.

Mazkur to'planning bosh g'oyasini quyidagi so'zlarda mujassam bo'lgan eng muhim o'zak fikr tashkil etadi: **«Biz o'tgan davrda amalga oshirgan ishlarimizga baho berar ekanmiz, «Kecha kim edigu bugun kim bo'ldik?» degan savol asosida ularning mohiyati va ahamiyatini o'zimizga chuqur tasavvur etamiz. Ayni vaqtda «Ertaga kim bo'lishimiz, qanday yangi marralarni egallashimiz kerak?» degan savol ustida o'ylashimiz, nafaqat o'ylashimiz, balki amaliy ishlarimiz bilan bunga javob berishimiz lozim».**<sup>3</sup>

Ana shunday yondashuv asosida mamlakatimizning mustaqillik yillarida bosib o'tgan tarixiy yo'li teran tahlil qilinib, bu hayotiy savollarga chuqur va haqqoniy javoblar berilgani kitobning qimmatini yanada oshiradi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyatli ko'p jihatdan ta'lim-tarbiya tuzulishini hozirgi davr talabiga ko'tarish har tomonlama barkamol shahsni shakllantirishga bog'liq. Chunki, jamiyat taraqqiyotining asosiy uning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi bilan bir qatorda shu jamiyatda yashayotgan fuqarolarning intellektual va ma'naviy samaradorligini ham belgilab beradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda har bir Davlatning istiqbolimizning ta'lim tuzulishini qay darajada ekanligi bilan belgilanadi.

Yurtimiz mustaqillikka erishgan ilk yillardayoq mamlakatimizda ta'lim tuzulishini rivojlantirish bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirildi. Ya'ni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi sessiyasida (1997-yili 29-avgust) qabul qilingan, hamda bugungi kunda amaliyotga keng ko'lamda tadbiiq etilayotgan "Ta'lim to'g'risidagi" qonun hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilinishi fikrimizning yorqin dalilidir. Ushbu muhim hujjatlar asosida ta'lim tuzilishida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning muhim pog'onasi hisoblanadigan umumiy o'rta ta'lim maktablarida yuksak islohotlarni amalga oshirish ularda

---

<sup>1</sup> 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustivor yo'nslishlariga bag'ishlangan vazirlar mahkamasining 2010 yil 29 yanvarda bo'lib o'tgan majlisidagi "Asosiy vazifamiz-Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir" ma'ruzasidan. "Ishonch" gazetasi.

<sup>2</sup> Karimov I. A. "Ona yurtimiz baxtu iqboli va kelajagi yo'lida xizmat qilish - eng oily saodatdir". T., "O'zbekiston". 2015 yil. 8-9 betlar.

bunyodkorlikni yanada avj oldirish maqsadida birinchi Prezidentimiz I. A. Karimovning 2004-2009-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi to'g'risidagi farmoni, qator hukumat qaroralarining qabul qilinishi ta'lim sohasida tub burilish yasashga asos bo'ldi. Mazkur dasturda ko'zda tutilgan masalalardan biri-ta'lim standartlari va o'quv dasturlarini takomillashtirish zamirida avvalo umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchilar bilimini har tomonlama yuksalishiga e'tibor berish mazmuni o'z aksini topgan.

“Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” dasturidan yoshlarimizni sog'lom va barkamol etib tarbiyalash masalasi alohida o'rin egallashi tabiiydir.

Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana bu fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelgan o'g'il-qizlarimiz amal qilishlarini men juda-juda istardim. Mana. Ulug' ajdodimiz nima deb yozganlar: “Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq”.

Bugungi tez o'zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko'rilmagan turli xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda. G'arazli kuchlar soda, g'or bolalarni o'z ota-onasiga, o'z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo'lmoqda.

Bunday keskin va taxlikali sharoitda ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko'y bu masalada xushyorlik va ogohlikni yanada oshirishimiz kerak. Bolalalrimizni birovlarining qo'lga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim.

Bizning navqiron avlodimiz manfaatlarini ta'minlash borasidagi faoliyatimiz yaqinda qabul qilingan “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida” gi qonun asosida

qat'iy davom ettiriladi.<sup>4</sup>

Maktabda ona tilini chuqur o'rganish zaruriyati ona tilining jamiyatdagi bajaradigan asosiy vazifalaridan kelib chiqadi. Til jamiyat a'zolarining bir-biri bilan o'zaro aloqasi uchun xizmat qiladigan vositadir. Odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabat til orqali amalga oshadi. Kishilar o'z his-tuyg'ulari, kechinma va holatlarini taassurot va tasavvurlarini til vositasida ifodalaydilar.

Bugungi kunda respublikamiz korxonalarida mehnat qilayotgan ayollar va o'smirlar mehnatini muhofaza qilishga katta ahamiyat berilmoqda. Xususan, ularni og'ir va sog'liq uchun zararli ishlardan ozod qilish, qisqartirilgan ish kuni huquqi qonun bilan belgilab qo'yilishi, homiladorlik ta'tili, bola tarbiyasiga beriladigan ta'tilning uch yilgacha uzaytirilishi va boshqa imtiyozlar bunga misol bo'la oladi.

Inson mehnati va bu mehnat jarayonida uning xavfsizligini ta'minlash har bir jamiyatning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lmog'i lozim. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan "Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi"da hayot, erkinlik, mehnat va shaxsiy daxlsizlik masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.<sup>5</sup>

Umumiy ta'lim tizimida ona tili asosiy va markaziy o'ringa ega. Ayniqsa, umumiy o'rta ta'limning asosi, poydevori bo'lgan boshlang'ich sinflarda ona tili yetakchi mavqeda turadi. Yosh avlodda fikrlash va fikrni to'g'ri ifodalay olish ko'nikmasini hosil qilish va rivoj toptirish, ularga ona tilining qonun-qoidalarini singdirish, bu qonun-qoidalarni amalda qo'llay bilishni o'rgatish, ularni savodxonlik bilan to'g'ri va chiroyli yozish, to'g'ri talaffuz, ifodali nutq. O'z his-tuyg'ularini so'z vositasi bilan yuzaga chiqara olish malakalariga ega qilish, bular orqali amaliy faoliyatga tayyorlash boshlang'ich sinflarda boshlanadi.

Bola 1-sinfga kelganida taxminan 1300, 1400 atrofida so'z boyligiga ega bo'ladi. Maktab ta'limi, o'qituvchilarning pedagogik mahorati bilan unga har kuni 5-6 ta yangi so'z o'rgatiladi va bu so'zlar uning lug'atidan joy olishi hamda mustahkamlanishi kuzatib boriladi.

---

<sup>4</sup> Xalq so'zi gazetasi. O'zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi. 2016-yil 7-dekabr.

<sup>5</sup> Qudratov O., G'aniyev T. Hayotiy faoliyat xavfsizligi. –T.:Aloqachi,2004.-3-b.



Shu bilan birga o'quvchilar ushbu so'zlarning yozilishi bilan ham tanishib boradilar. O'quvchilar ona tili qoidalari bilan birgalikda to'g'ri va chiroyli yozishga o'rganib borishlari lozim bunga erishish uchun esa doimiy ravishda o'quvchilarni savodli yozish malakalarini rivojlantirib borishimiz lozim.

Bugungi kunda ayrim joylarda panolarda, viveskalarda, jamoat joyidagi e'lonlarda ayrim orfografik va imlo qoidalari buzilgan holatdagi yozuvlarni uchratishimiz mumkin. Afsuski bunday kamchiliklar tez-tez ko'zga chalinib turibdi. Albatta bularning barchasiga yoshlikdanoq savodli yozish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yaxshi e'tibor qaratilmasligi deb olishimiz mumkin. Shuning uchun ham o'quvchilarni ilk maktab yoshidanoq savodli yozishga o'rgatib borish bugungi kunda ham dolzarb va ahamiyatli muammolardan biri bo'lib qoladi.

### **Bitiruv malakaviy ishning maqsad va vazifalari.**

Ushbu bitiruv malakaviy ishni yozishda savod o'rgatishning tayyorlov davrida o'quvchilarni yozuvga o'rgatish asosiy maqsad qilib belgilandi.

Ushbu maqsadni amalga oshirishda quyidagi vazifalar amalga oshirildi

-Boshlang'ich sinf o'quvchilarini yozuvga o'rgatish bo'yicha adabiyotlar va internet ma'lumotlari tahlili,

-o'quvchilarni savod o'rgatishning ilk davridayoq yozishga o'rgatish masalalarini o'rganib chiqish

-Darslarda zamonaviy usullarni qo'llab darslarni tashkil etish bo'yicha adabiyotlarni o'rganib chiqish

-zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion hamda interaktiv usullar, turli didaktik o'yinlardan foydalanib o'quvchilarga savod o'rgatish yo'llarini ishlab chiqish.

**Tanlangan obyekt va usullar.** Bitiruv malakaviy ishning muammosiga oid falsafiy, psixologik, pedagogik hamda metodik adabiyotlar ta'lim mazmunini yorituvchi me'yoriy hujjatlar mazmunini o'rganish va tahlil qilish; nazariy-mantiqiy tahlil, ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, ta'lim jarayonini kuzatish, suhbat, so'rov-anketa, qiyosiy tahlil, pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish, olingan natijalarni tahlil qilish kabi usullardan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishning obyektini qilib Namangan shahridagi 5-umumta'lim maktabining 1-sinflarida savod o'rgatish davri tanlab olindi.

Quyidagicha usullardan foydalanildi:

1. Mavzuga oid darslarni kuzatish;
2. O'qituvchilar orasida anketa so'rov ishlari;
3. Tajriba-sinov o'tkazish va ularni tahlil qilish;

### **Bitiruv malakaviy ishning nazariy va amaliy ahamiyati.**

Boshlang'ich sinf savod o'rgatishning tayyorlov davrida yozuv darslarini tashkil etishda ilg'or texnologiyalardan foydalanish usullari nazariy jihatdan asoslangan.

Ushbu bitiruv malakaviy ishda yoritilgan nazariy va amaliy fikrlardan o'rta maktab boshlang'ich sinf o'qituvchilari, oliy o'quv yurtlari pedagogika fakulteti talabalari o'quv jarayonini tashkil etishda foydalanishlari mumkin.

### **Bitiruv malakaviy ishning tarkibiy tuzilishi.**

Ushbu bitiruv malakaviy ish ikki asosiy bob, boblarga tegishli 7 ta band, Tajriba ishlari, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

# **I BOB. SAVOD O'RGATISH TAYYORLOV DAVRI YOZUV DARSLARIDA O'QUVCHILARNI YOZUVGA O'RGATISH MASALALARI VA SHART-SHAROITLARI**

## **1.1. Savod o'rgatish davrining o'ziga xos xususiyatlari, maqsad va vazifalari.**

Ma'lumki, savod o'rgatish, o'qish darslarining asosiy vazifasi o'quvchilarga tovush va harfni tanishtirish, ularning to'g'ri talaffuzini o'rgatish orqali bolalarda to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Shuningdek, o'quvchilar lug'atini boyitish, bog'lanishli nutqini o'stirish, bilimni boyitish, mavxum tafakkurini shakllantirish, eshitish, qabul qilish sezgisini o'stirishda ham bu davr mas'uliyatligi bilan alohida o'rin tutadi.

Tayyorgarlik davri o'qishda o'rgatish uchun zamin hozirlaydi. Bu davrda bolalarda o'zgarlar nutqing eshitish, diqqatni to'plash, til birikmalarini (tovush, bo'gin, so'z, gap) farqlash, ajratish, ularning vazifalarini anglash kabi xususiyatlar shakllanadi. Bular o'quvchilarni o'qishni muvaffaqiyatli egallashlariga yordam beradi.

O'qish va yozish — nutq faoliyatining turi. Maktabda o'qitish o'qish va yozishga o'rgatishdan boshlanadi. „Alifbe"ga suyangan holda qisqa vaqt ichida o'quvchilar o'qish va yozishga o'rganadilar.

Savod o'rgatish davrda o'qish va yozish harakatini maqsadga muvofiq ravishda bajara olish o'qish va yozish ko'nikmasi deyiladi. Ushbu ko'nikma bilimni talab qiladi, chunki har qanday ko'nikmalarsiz shakllanmaydi. Bilim ko'nikmaga aylanmagan bo'lishi iimkin. Masalan, bola v harfining elementlarini, yozuv chiziqlari bo'ylab qanday joylashtirilishini bilib, uni daftarda yoza olmasligi yoki o'quvchi harflarni tanib, ularni o'qiy olmasligi mumkin. ko'nikmasini hosil qilish uchun boshqa faoliyat turlari, ya'ni yozish jarayonida partada to'g'ri o'tirish, ruchkani barmoqlar orasida tutitsh, daftarni qiyalikda qo'yish kabilar ham o'rgatiladi.

O'qish va yozish ko'nikmasi takomillashtirila borib, malakaga aylantiriladi. Malakaning shakllanishi uchun bir faoliyat bir necha marta takrorlanishi lozim.

Yozish malakasida o'quvchi ruchkani qanday ushlab, qanday yurgizish haqida o'ylab o'tirmay, so'z va gaplarni yoza boshlaydi. Demak, o'qish va yozish malakasi harakatning o'ylab o'tirmay amalga oshirilish jarayonidir. Malaka o'qitishning keyingi bosqichlarida mustahkamlanib, avtomatlashish darajasiga yetkaziladi.

O'qish va yozish kishi nutq faoliyatining turi bo'lib, u nutqqa oid malakadir. O'qish malakasi ham, yozish malakasi ham nutq faoliyatining boshqa turlari bilan, ya'ni og'zaki hikoya qilish, o'zgarar nutqini eshitish orqali anglash, ichki nutq bilan uzviy bog'liq holda shakllantiriladi. Maktabda o'qitishning muvaffaqiyati savod o'rgatishning qanday darajada o'qitilganligiga bog'liq.

O'quvchini savod o'rgatish jarayonida elementar “o'qish va yozishga” o'rgatishda o'quvchilarning faoliyat ko'rsatishi va nutq faoliyatiga intilishlari uchun talab bo'lishi, o'z fikrini og'zaki yoki yozma ifodalay olishlari uchun zaruriyat va ehtiyojni yuzaga keltiruvchi vaziyat yaratilishi zarur.

O'qish va yozish malakasi biri ikkinchisining muvaffaqiyatli amalga oshuvini ta'minlaydi. Shuning uchun ham o'qishga o'rgatish bilan yozuvga o'rgatish parallel olib boriladi va bu faoliyat muntazam ravishda mashq qildiriladi. Shunday ekan, savod o'rgatish jarayonida bola juda ko'p o'qishi va yozishi zarur. O'qish uchun ham, yozish uchun ham yangi matn olinadi, chunki bir matnni bir necha bor qayta o'qish bilan maqsadga erishish qiyin. Bu ko'pincha o'qilgan matnni yuzaki yodlab olishga olib keladi. Takroriy faoliyatda vaziyat va mazmunning almashinishi malakani mustahkamlashga yordam beradi, qobiliyatni o'stiradi. O'quvchi oldida uzoq muddatda amalga oshadigan maqsad — o'qish va yozishni o'rganish hamda hozirda bajarishi shart bo'lgan kundalik maqsad — topishmoqni o'qish va javobini topish, so'z va gaplarni o'qish, rasm asosida so'zlab berish kabilar turadi.

O'zbek tili yozuvi tovush yozuvi, ya'ni fonematik yozuvdir. Har bir tovush uchun, har bir fonema uchun maxsus grafik shakl (harf) olingan. O'qishda grafik shakllar tovushga aylantirilsa, yozuvda aksincha, tovushlar harflarga aylantiriladi. Bu o'qish va yozish faoliyatida o'quvchi uchun qiyinchilik tug'dirgandek tuyulsa-da, aslida o'qish va yozish jarayonini soddalashtiradi, chunki tilimizdagi tovushni

ifodalovchi harflar soni uncha ko'p emas. O'qish va yozishni o'zlashtirish uchun tovush va harflarning o'zaro munosabatiga oid qoidalarni o'zlashtirish kifoya. Savod o'rgatish metodikasida o'zbek tili tovushlar va harflar tizimining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish talab etiladi.

O'zbek tilining tovush tizimi va yozuvi. O'zbek tili yozuvi fonematik yozuv hisoblanadi. 1993-yil 2-sentabrdagi „Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida“gi qonunga muvofiq o'zbek tili yozuvi uchun lotin grafikasi asos qilib olindi. Nutqning har bir tovushi uchun unga mos grafik shakl qabul qilindi.

O'qituvchi savod o'rgatish jarayonida o'quvchilarni tovush va harflar bilan tanishtirishda, ularni sintezlab o'qishga o'rgatishda o'zbek tilining fonetik xususiyatlarini hisobga olishi zarur.

Savod o'rgatish analitik-sintetik tovush metodiga asosan olib boriladi. So'z bo'g'inga bo'linadi, bo'g'indan kerakli — o'rganilayotgan tovush ajratilib olinadi, tahlil qilinadi, o'rganiladigan harf bilan sintezlanadi, shu asosda harf va butun o'qish jarayoni o'zlashtiriladi. Bunda o'zbek tili grafik tizimi, tovushlarni yozuvda belgilash xususiyatlari hisobga olinadi. Savod o'rgatishda o'zbek tili grafik tizimining quyidagi xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega:

Savod o'rgatishda tovush-harf bilan tanishtirish unlilardan boshlanadi. Hozirgi o'zbek tilida 6 ta unli fonema mavjud: a, o, i, e, u, o`.

E harfi so'z va bo'g'in boshida qo'llanadi (*ekin, echki, aeroplan*), undoshdan keyin o'rta keng lablanmagan unli tarzida o'qiladi (*kel, tez*). Savod o'rgatishda oldin so'z boshida keladigan e, so'ngra undoshdan keyin keladigan e tovush-harfi bilan tanishtiriladi.

O harfi o'zbekcha, umumturkiy so'zlarda quyi keng, lablangan olovushini ifodalaydi, ruscha-baynalmilal so'zlarda urg'usiz bo'g'inda a tarzida (*botanika*), o` tovushi kabi (*tonna*), qisqa i tarzida (*traktor*) talaffuz qilinadi. Shuning uchun bu unli qatnashgan ruscha-baynalmilal so'zlar savod o'rgatish davridan so'ng o'quv jarayoniga kiritiladi.

A tovushi *bahor, savol* kabi so'zlarda o kabi, *muomala, munosabat* kabi

so'zlarda i tovushiga yaqin talaffuz qilinadi, lekin a yoziladi.

U tovushi *qovun, sovun* kabi so'zlarda i tovushiga yaqin talaffuz eshitilsa ham u yoziladi.

I tovushi *bilan, sira* kabi so'zlarda talaffuz etilmasa ham yozuvda doimo saqlanadi.

2. O'zbek tilida 24 ta undosh tovush bor. Yozuvda ular 23 ta harf bilan ifodalanadi: shulardan 3 tasi harf birikmasi, 21 tasi yakka harf bilan belgilanadi. Ular quyidagilar: b, d, f, g, h, j (*jurnal*), j (*jo'ja*), k, i, m, n, p, q, r, s, t, v, x, y, z, g, sh, ch, ng. Undoshlarni o'rgatishda ham muayyan tartibga, talabga asoslaniladi.

Alifbo davrida undosh tovushlar bilan tanishtirishni sonor, ya'ni ovozdor tovushlar bilan boshlash maqsadga muvofiqdir. Chunki sonor tovushlarni bo'g'in va so'z tarkibidan ajratib olish oson. Lekin ng sonor undoshi n va g undosh tovushlari va harflari bilan tanishtirilgach, o'rgatiladi. Harf birikmalarini o'rgatishdagi qiyinchilik hisobga olingan holda, ularning alifbe davrining oxirgi bosqichida o'rganilishi maqsadga muvofiqdir.

J harfi ikki tovushni ifodalaydi, shuni hisobga olib, unga alohida darslar ajratiladi. Birinchi darsda portlovchi j tovushini o'rgatish, talaffuzini tushuntirish, analitik-sintetik mashqlar yordamida ko'nikmalar hosil qilinadi, keyingi darsda esa sirg'aluvchi j tovushi va uning talaffuzi o'rgatiladi. So'ng bu ikki tovushning talaffuzidagi farq taqqoslash usuli orqali tushuntiriladi. Berilgan bilim analitik-sintetik mashqlar yordamida mustahkamlanadi.

Sh tovushini ifodalovchi sh harf birikmasi ham s va h harfi bilan, ch tovushini ifodalovchi ch harf birikmasi h harfi bilan tanishtirilgach, o'rgatiladi. O'quvchilar bu harf birikmalarini bir yaxlit tovushli sifatida o'qish va yozishga ko'nikishlari lozim. Bu davrda s'h (is'hoq) tarzida o'qiladigan holatga to'xtalmaydi.

Jarangsiz jufti bor jarangli undoshlar talaffuzi (*b—p, d~t, v—f, g~k, Z~s* kabi) haqida dastlabki amaliy tushunchalar hosil qilinadi, ularning talaffuzi va yozilishiga e'tibor qaratiladi.

X va h tovushlarining talaffuzi va imlosi haqida ham dastlabki tushunchalar

beriladi, ularni farqlash bo'yicha maxsus mashqlar ham uyushtiriladi.

Tutuq belgisi (') unli tovushdan so'ng kelsa, uni cho'zib talaffuz qilishga, undosh tovushdan so'ng kelsa, undoshni unidan ajratib talaffuz qilishga xizmat qilishi haqida ham tushunchalar berilib, asta-sekin uni qo'llashga doir ko'nikmalar shakllantiriladi.

Savod o'rgatish jarayonida harflarning 4 xil (bosma, yozma, bosh va kichik) shakli va ularning ishlatilish o'rni o'rgatiladi.

O'quvchilarni o'qishga o'rgatish bo'g'in asosida olib boriladi. Bo'g'inlab o'qishga o'rgatish uchun so'zni bog'inga bo'lish, bo'g'in chegarasini aniqlashni o'rgatish muhim sanaladi. Savod o'rgatish davrida o'quvchilar so'zlarni bo'g'inlarga to'g'ri ajrata olsalar o'qish ko'nikmasini ham yaxshi egallaydilar.

Talaffuzi yozilishiga mos kelmaydigan tovushlar ishtirok etgan so'zlar oldin orfografik, so'ngra o'ifoepik o'qib beriladi va ularning o'qilishi bilan yozilishi taqqoslanadi. O'quvchilar muayyan darajada tushunchaga ega bo'lganlaridan so'ng orfoepik o'qish mashq qilinadi.

O'qish ham, yozish ham murakkab nutq faoliyati hisoblanadi. Bu jarayonlar kichik yoshdagi o'quvchidan iroda, aql, hatto jismoniy harakatni ham talab qiladi.

Kichik yoshdagi o'quvchini o'qishga o'rgatishda quyidagilar kuzatiladi:

1. Bola o'qish paytida bitta harfni ko'radi, uni bilish uchun rasmlarni ko'z oldiga keltiradi, rasmlarni yoki boshqa harflarni eslaydi, esga tushirgach, uni aytishga oshiqadi, biroq o'qituvchi aytishga yo'l qo'ymaydi, undan bo'g'inni aytishni talab qiladi. O'quvchi ikkinchi harfni eslab olguncha, birinchisi esdan chiqib qoladi yoki ularni qo'shib bo'g'in, bo'g'indan so'z hosil qilguncha, o'qish jarayoni sustlashadi.

Boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilar nutqini o'stirishdir. Nutq o'stirish uch yo'nalishda: so'z ustida ishlash, so'z birikmasi va gap ustida ishlash, bog'lanishli nutq ustida ishlash orqali amalga oshirilishi metodik adabiyotlarda qayd etilgan.

Savod o'rgatish darslarida ham yuqoridagi uch yo'nalish bo'yicha ish olib boriladi. Ona tilidan olib boriladigan ishlarning hammasi, shu jumladan savod

o'rgatish ham o'quvchilar nutqi va tafakkurini o'stirish bilan bog'liq holda uyushtiriladi. Savod o'rgatish davridagi ishlarning miqyosi keng bo'lib, ekskursiyalar, bolalarning kuzatishlari, predmet va sujetli rasm yuzasidan suhbat va shu kabilar bilan bog'lanadi. Bu davrda o'quvchilar nutqini o'stirishning vazifalari quyidagilardan iborat:

- 1) o'quvchilar nutqidagi kamchiliklarni to'g'rilash;
- 2) ularning tasavvur va tushuncha doirasini kengaytirish bilan bog'liq holda lug'atini boyitish;
- 3) o'quvchilar nutqidagi ayrim so'zlarning ma'nosiga aniqlik kiritish;
- 4) gap va uch-to'rt gapli kichik „hikoya“ (bog'lanishli nutq)ni og'zaki to'g'ri tuzish ko'nikmasini o'stirish.

Bolalar bu davrda, birinchidan, kiyim-kechak, ish qurollari, mevalar kabi predmetlar bilan tanishish yordamida so'zni ongli ishlatishga; ikkinchidan, turli sodda yig'iq gap (*Bolalar yuguryaptilar*), sodda yoyiq gap (*Lola do'konga bordi*), uyushiq bo'lakli gap (*Anvar o'qidi va yozdi*) tuzadilar. Ular bu ko'nikmalarni amaliy mashqlar yordamida egallaydilar.

Bolalarning shaxsiy tajribalari, kishilar hayoti va tabiatni kuzatishlari nutq o'stirish uchun asosiy manba hisoblanadi. Narsalar, uy-ro'zg'or buyumlari, o'simliklar, hayvonlar qiziqarli suhbat uchun mavzu bo'lib xizmat qiladi. Suhbat jarayonida bolalarda hosil qilingan tasavvur asosida aniq tushunchalar shakllanadi.

Birinchi sinf o'quvchilari nutqini o'stirishda bolalarning o'yin va ermaklari, rasm ko'rish va „*Bu nima?, Bu kim?, U nima qilyapti?*“ kabi savollar asosida suhbatdan ham foydalaniladi.

Savod o'rgatish davrida nutq o'stirishga oid ish turlariga atrofdagi jonli predmetlarning nomini, ularning belgilarini aytish, predmetlarni ma'lum belgilari asosida guruhlash kabi mashqlar kiradi. Masalan, o'qituvchining topshirig'iga muvofiq, ma'lum bir mavzuda (kuz, mevali bog', sinf, maktab haqida) ikki so'zdan iborat gap tuzadilar; keyinroq esa shunday yig'iq gaplar tuzib, uni savollar yordamida yoyiq gapga aylantiradilar. Ular o'rgangan harflaridan so'zlar va kichik gaplar tuzib yozadilar.



O`qish darslarida o`quvchilar rasmga qarab kichik hikoyacha tuzadilar, o`qituvchi savoliga to`liq javob berishga o`rganadilar. Alifbedagi rangli, chiroyli rasmlar tevarak-atrofdagi predmet va hodisalar, hayvonlar va o`simliklarning nomini idrok etishga, bilib olishga yordam beradi.

Savod o`rgatish davrida o`quvchilarning talaffuzi ustida ishlash ham katta ahamiyat kasb etadi, chunki ko`pgina bolalarning talaffuzida kamchiliklar bo`ladi: bir tovush o`rniga boshqasini (*sh* o`rniga *s*, *r* o`rniga *l*) talaffuz qiladilar, chuchuk til bilan duduqlanib gapiradilar, so`zdagi ayrim tovushni tushirib yoki boshqa bir tovush qo`shib talaffuz qiladilar, tovushlar o`rnini almashtirib qo`yadilar va hokazo. Bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun logopedlar maxsus mashqlardan foydalanadilar. O`qituvchi ham har bir darsda va darsdan tashqari vaqtda o`quvchilar talaffuzini kuzatib borishi, kamchiliklarni aytib, to`g`ri talaffuz namunasini ko`rsatishi lozim.

2. Ko`pincha bola o`qiyotgan qatorni yo`qotib qo`yadi, harfni, bo`g`inni, so`zni qayta o`qishiga to`g`ri keladi. o`quvchining diqqati kengaygan sari bo`g`in va so`zni butunligicha idrok eta boshlaydi.

3. O`qishni endi o`rganayotgan bola o`qiyotgan matn mazmunini o`zlashtirmaydi, chunki u so`zni qanday o`qishga ko`p kuch beradi. Darslikdagi rasmlar, o`qituvchining savollari, ko`rgazmali qurollar ularning ongli o`qishlarini ta`minlaydi.

4. Tajribasiz kitobxon so`zni birinchi bo`g`iniga yoki rasmiga qarab topadi. Bu xato o`qishga olib keladi. Bunday xatoning oldini olish uchun so`z bo`g`inlab o`qitiladi, so`zni bo`g`in-tovush tomondan tahlil qilishga, tovush-harf tomondan analiz va sintez qilishga diqqat qaratiladi.

O`qishni muvaffaqiyatli egallashlari uchun o`quvchilarning idroki, xotirasi, tafakkuri va nutqini o`stirishga katta e`tibor berish kerak. Savod o`rgatishda fonematik eshitish qobiliyatlarini o`stirishga, ya`ni tovushni aniq talaffuz qilishga, boshqa tovushlardan farqlashga o`rgatish, bo`g`in yoki so`zdan o`sha tovushni ajrata olish ko`nikmasini o`stirish muhim sanaladi.

Fonematik eshitish imloviy malakani hosil qilishning muhim shartidir. Shu

bois savod o'rgatish davrida eshitish idrokini o`stirish uchun ham maxsus xilma-xil mashqlar o`tkazib borish maqsadga muvofiqdir.

Yozuv jarayonida o'quvchilar ruchkani to'g'ri ushlashni, daftarni to'g'ri qo'yishni, harfni yozishda yozuv chiziqlari, ular bo'ylab qo'lni harakatlantirishni esda saqlashi, harfni harfga qanday ulash, qatorga sig`ish-sig`masligini mo'ljallashi lozim. Bu jarayon o`quvchini aqliy va jismonan charchatadi, ayniqsa, ularning barmoq va yelka muskullari charchaydi. Shuning uchun ham darsda ikki-uch marta daqiqali jismoniy mashqlar o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir.

Yozuv jarayonida o'quvchi ruchkani qog'oz ustida sekin, ishonchsizlik bilan qimirlatadi, bir harfni yozib to'xtaydi va namuna bilan solishtiradi, ba'zan chiziqdan chiqib ketadi, noto'g'rilarini bo'yab, to'g'rilaydi. Bunda u o'qituvchiga har daqiqada murojaat qiladi, uning qo'li va boshi yozishda birgalikda harakat qiladi. Yozuv jarayoni o'quvchilarning ongli harakat qilishlarini ham talab etadi. Shu sababli o'qituvchi yozuv jarayoniga sabr-qanoat bilan katta e'tibor qaratishi juda muhim. Yozuvning chiroyli va imloviy jihatdan to'g'ri bo'lishi savodxonlikning yuksak belgisidir.

## **1.2. Savod o'rgatish davrida o'quvchilarni o'qish va yozishga o'rgatish masalalari.**

Ma'lumki, savod o'rgatish, o'qish darslarining asosiy vazifasi o'quvchilarga tovush va harfni tanishtirish, ularning to'g'ri talaffuzini o'rgatish orqali bolalarda to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Shuningdek, o'quvchilar lug'atini boyitish, bog'lanishli nutqini o'stirish, bilimini boyitish, mavxum tafakko'rini shakllantirish, eshitish, qabul qilish sezgisini o'stirishda ham bu davr mas'uliyatliligi bilan alohida o'rin tutadi.

Tayyorgarlik davri o'qishga o'rgatish uchun zamin hozirlaydi. Bu davrda bolalarda o'zgalar nutqning eshitish, diqqatni to'plash, til birikmalarini (tovush, bo'g'in, so'z, gap) farqlash, ajratish, ularning vazifalarini anglash kabi xususiyatlar shakllanadi. Bular o'quvchilarning o'qishni muvoffaqiyatli egallashlariga yordam beradi.

O'qishga o'rgatish uchun avvalo o'quvchi tovush va harf bilan yaxshi tanishtirilishi lozim. Tovush va harf bilan tanishtirishda bo'g'indan tovushni ajratish tamoyiliga rioya qilinadi. Harf bilan tanishtirish bir necha xil yo'nalishda amalga oshirilishi mumkin:<sup>1</sup>

1. Mazmunli rasm yuzasidan savol-javob usuli bilan bog'lanishli hikoya tuzdiriladi. Undan kerakli gap, so'ng kerakli so'z ajratib olinadi, so'ngra so'z ustida yuqoridagi kabi tahlil ishlari uyushtiridadi.

2. So'z asos qilib olinadi. Analitik mashqlar yordamida o'rganiladigan tovush ajratibolinadi: ot. O'qituvchi ot rasmini ko'rsatadi, o'quvchilar uning nomini - so'zni aytadilar. O'qituvchi o tovushini cho'zib (o-o-o-ot) aytadi va qaysitovushni cho'zib aytayotganini o'quvchilardan so'raydi. O'quvchilar o tovushini aytgach, uning xususiyatlari haqida savol-javob o'tkaziladi. O tovushli so'zlar o'ylab toptiriladi. Shundan so'ng o harfi kesma harfdan yoki rasmlı alifbodan ko'rsatiladi. Bunda o harfining shaklini esda olib qolishlariga alohida e'tibor beriladi.

3. O'rganilgan harflar ichiga bugun o'rganiladigan harf aralashtirib qo'yiladi, bolalar uning ichidan notanish harfni ajratadilar, so'ng o'qituvchi bu harf ifodalaydigan tovushni aytadilar. O'quvchilar tovushning xususiyatlarini aytadilar. Shu harfni kesma harflar ichidan topib, kitob sahifasidan, rasmlı alifbodan ko'rsatadilar.

Shu tariqa tovush-harf bilan tanishtirilgach, o'qishga o'rgatish ustida ishlanadi.

O'qishga o'rgatishda bo'g'in asos qilib olinadi. Buning uchun o'qituvchida bo'g'in jadvali bo'lishi lozim. Bo'g'in jadvali asosida o'qish namunasi ko'rsatiladi, ya'ni harflab emas, ichida, birinchi harfni ko'z bilan ko'rib, uning nomini dilda saqlab, ikkinchi harfni ko'rish va ikkalasini bog'lab, unlini mo'ljallab ulab aytish tushuntiriladi. Bo'g'in o'qish o'qituvchining namunasi asosida doimiy ravishda har bir darsda izchil olib boriladi. Bunda quyidagi kabi jadvaldan foydalanish mumkin.

Bunda «Alifbe» sahifalaridagi so'zlarni oldin bo'g'inga bo'lish, so'ng o'qishni mashq qilish yaxshi samara beradi. O'qituvchining namunali o'qishidan so'ng xor bilan o'qish, yakka-yakka o'qishdan, shivirlab o'qishdan foydalaniladi. Ayniqsa,

---

<sup>1</sup> Qosimova K., Matchonov S. Ona tili o'qitish metodikasi. T., "Noshir" nashriyoti. 2009 y. 24-bet.

sekin o'qiydigan o'quvchilar bo'lgan sinflarda xor bilan o'qitish o'qishni tezlashtirishga yordam beradi. Sinf o'quvchilarining o'qish ko'nikmalaridan kelib chiqib, matndagi so'zlarni harf xattaxtasiga bo'g'inlarga bo'lib yozish, o'rganilgan harflarni hisobga olgan xolda qo'shimcha so'z birikmalari, gaplar tuzib yozish va o'qitish usulidan ham foydalaniladi.

Ma'lumki, «Alifbe» sahifalarida bo'g'in tuzilishi murakkablashib boradi. Shuning uchun o'qituvchi har bir bo'g'in tuzilishining murakkabligiga qarab ish usullarni belgilab olishi zarur. Masalan, uch tovushdan tuzilgan, to'rt tovushdan tuzilgan bo'g'inlarni o'qishga o'rgatish ham o'ziga xos qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bunda o-lam, Man-non, tipidagi bo'g'inlarda — o-la:m, Ma: n- no: n tarzidagi qo'shimcha chiziqdan, bodring, do'st tipidagi bo'g'inda ring, do'st tarzidagi qo'shimcha chiziqlardan foydalaniladi. So'zlarni o'qishga o'rgatishda bilib o'qitishdan tashqari jadvallar ham yaxshi samara beradi.

Umuman olganda, har bir o'qish darsida albatta bo'g'in tuzilishi murakkab so'zlarni o'qish mashqi o'tkazilishi lozim. Bu usul o'quvchilarda o'qish malakasining takomillashuviga yordam beradi.

O'qishga o'rgatishda so'zlarni va gaplarni to'ldirib o'qish ko'nikmalarini hosil qilish o'quvchini gap tuzishga, tez fikrlashga yo'naltiriladi. O'quvchi tushirib qoldirilgan harf va so'zni rasmga qarab topadi, uning gap mazmuniga mos yoki mos emasligiga e'tibor beradi, o'rtoqlariga nisbatan tez topib, o'qituvchining rahmatiga sazovor bo'lishga intiladi.

«Alifbe» darsligidagi matnlarda turli tinish belgilari ishlatilgan. Ular shularga mos ohang tanlashni, to'xtash, pauza qilish o'rinlarini belgilab olishni taqozo etadi. Bunda ham o'qituvchining tushuntirishi (birinchi uchragan tinish belgini izohlashi) va ifodali o'qish namunasini ko'rsatishi katta ahamiyat kasb etadi. Ifodali o'qilgan matngina tushunarli tuziladi.

Har bir predmetda bo'lgani kabi o'qish darslarida ham ta'lim-tarbiya birligiga e'tibor beriladi. O'qish darslarida tarbiya o'qilgan matnning ongli o'zlashtirilishiga bog'liq. O'quvchi matnda fikr nima haqida borayotganini anglasagina, o'zida shunday xislatlarni shakllantirishga harakat qiladi. Ikkinchidan esa yaxshi inson

bo'lish uchun o'qishning zarurligini anglaydi. Shuning uchun ongli o'qishni ta'minlashda matn bilan unga ishlangan mazmunli rasmlar o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlashtirishga, matn yuzasidan savollar berishga diqqat qaratish lozim. Masalan, rasmni kuzating, matnda nima haqida gap boradi? Rasmda nima tasvirlangan? Ular orasida bog'lanish bormi?

Matn mazmunini rasimga qarab so'zlab bering.

Yoki: Bolalar qayerga bordilar? Qizning ismi nima? Bolaning ismi-chi? Ali, Lola nima qildi? Ular qanday lolalar terdilar?

Demak, o'qish o'qiganlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim, shundagina matndagi asosiy fikr, ilgari surilayotgan g'oya o'qituvchilar tomonidan o'zlashtiriladi. So'ng so'z va matnlar yod olingan taqdirda ham o'quvchilik bo'lib qoladi,

O'qishning ongliligini va ta'sirchanligini ta'minlash uchun matn mazmunini o'quvchilarning ko'rgan kechirganlarini, taassurotlari bilan bog'lash lozim. Shunda o'quvchida o'qishga, o'rganishga qiziqish ortadi.

Ongli o'zlashtirishni amalga oshirishda lug'at ustida ishlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. She'r, tez aytish, topishmoq, qo'shiq, maqol, hikmatli so'zlardan o'qitish, yod oldirish ham o'quvchilarni o'qishga qiziqishini oshiradi, o'qish malakasini shakllantiradi, xotirasini mustahkamlaydi. O'qish darslarining uchdan ikki qismi o'qishni mashq qilishga ajratilishi lozim.

Demak, o'quvchilarni o'qishga o'rgatish, ularning o'qish sur'atini oshirish, ifodali va ongli o'qish elementlarini shakllantirish, tarbiyalash o'qish darslarining muhim vazifalari hisoblanadi.

Ona tilidan olib boriladigan ishlarning hammasi, shu jumladan savod o'rgatish ham, o'quvchilar nutqi va tafakkurini o'stirish bilan bog'liq xolda uyushtiriladi. Savod o'rgatish davridagi ishlarning miqyosi keng bo'lib, ekskursiyalar, bolalarning kuzatishlari, predmet darslar, rasm yuzasidan suhbat va boshqalar bilan bog'lanadi. Bu davrda o'quvchilar nutqini o'stirishning vazifalari:

- 1) bolalar nutqidagi kamchiliklarni to'g'irlash;
- 2) ularning tasavvur va tushuncha doirasini kengaytirish bilan bog'liq xolda

lug'atini boyitish;

3) o'quvchilar nutqidagi ayrim so'zlarning ma'nosiga aniqlik kiritish;

4) gap va uch-to'rt gapli kichik «hikoyacha» (bog'lanishli nutq)ni og'zaki turli tuzish ko'nikmasini o'stirishdan iborat.

Bolalar bu davrda, birinchidan, kiyim-kechak, ish qurollari, mevalar kabi predmetlar bilan tanishish yordamida so'zni ongli ishlatishga; ikkinchidan, turli tipdagi sodda yirik gap (Bolalar yuguryaptilar), sodda yoyiq gap (Lola magazinga bordi), uyushiq bo'lakli gap (Anvar oyisiga yordamlashadi, ukasiga qaraydi), tuzadilar. Ular bu ko'nikmalarni amaliy -mashqlar yordamida egallaydilar.

Bolalarning shaxsiy tajribalari, kishilar hayoti va tabiati, kuzatishlari nutq o'stirish uchun asosiy manba hisoblanadi. Predmetlar, uy-ro'zg'or asboblari, o'simliklar, hayvonlar qiziqarli suhbat uchun mavzu bo'lib xizmat qiladi. Suhbat jarayonida bolalarda hosil qilingan tasavvur asosida aniq tushunchalar shakllanadi.

Birinchi sinf o'quvchilari nutqni o'stirishda bolalarning o'yin va ertaklari, rasm ko'rish va Bu nima? Bukim? Bu qanday predmet? Kim nima qilyapti? kabi savollar asosida suhbatdan ham foydalaniladi.

Savod o'rgatish davrida nutq o'stirishga oid ish turlariga atrofdagi jonli predmetlarning nomini, ularning belgilarini aytish, predmetlarni ma'lum belgilari asosida guruhlash kabi mashqlar kiradi. Masalan, o'qituvchining topshirig'iga muvofiq ma'lum bir temada (kuz, mevali bog', oila, sinf, maktab haqida) ikki so'zdan iborat gap tuzadilar; keyinroq esa shunday yirik gaplar tuzib, uni savollar yordamida yoyiq gapga aylantiradilar. O'rgangan harflaridan so'zlar va kichik gaplar tuzib yozadilar. O'qish darslarida rasmga qarab kichik hikoyacha tuzadilar, o'qituvchi savoliga to'liq javob berishga o'rganadilar. Alifbedagi rangli chiroyli rasmlar tevarak-atrofdagi predmet va xodisalar, hayvonlar va o'simliklarning nomini idrok etishga, bilib olishga yordam beradi.

Savod o'rgatish davrida grammatik-orfografik bilimlarni amaliy o'zlashtirish. Savod o'rgatish davridayoq bolalar grammatika va imlodan ayrim materiallarni amaliy asosda o'zlashtira boradilar, ya'ni ularga mavzu tushuntirilmaydi, nazariy ma'lumot berilmaydi.

Bolalar og'zaki va yozma nutqni o'zlashtirish va yozma mashqlarni bajarish bilan o'quv yilining ikkinchi yarmida yoki keyingi sinflarda o'rganiladigan mavzularni o'zlashtirishga tayyorlaydilar.

Savod o'rgatishning birinchi oylaridayoq bolalar Ali, Omon, Olam, Naima kabi juda ko'p ismlarni o'qiydilar va kishilarning ismlari bosh harf bilan yozilishini amaliy o'zlashtira boradilar.

Bu bilan ular o'quv yilining ikkinchi yarmida o'rganiladigan kishilarning ismi bosh harflar bilan yozilishiga doir imlo qoidasini o'zlashtirishga tayyorlanadilar. Til-dil, olti-oldi kabi so'zlarni o'qishni mashq qilish jarangli va jarangsiz undoshlarni o'zlashtirishga, son-sana, gul—gulchi-guldon—gulzor, bog'-bog'bon-bog'cha kabi so'zlarni o'qishni mashq qilish esa bolalarni «O'zakdosh so'zlar» mavzusini o'zlashtirishga tayyorlaydi.

Propedevtik mashqlar sistemasi boshlang'ich sinflar grammatika va imlo dasturining bosqichli izchillik tamoyili asosida tuzilishiga mos keladi. Amaliy ishlar natijasida bolalarda ma'lum nutq tajribasi, til qoidalarini, so'zni, uning tarkibi va yasalishini, boshqa so'zlar bilan bog'langanda o'zgarishini kuzatish tajribasi to'plana boradi. Mana shu tajribalar asosida o'quvchilar nazariy umumlashmalarni o'zlashtiradilar, bular asosida esa grammatik tushuncha va orfografik qoidalar shakllanadi.

**Savod o'rgatish jarayonida yozuvga o'rgatish.**<sup>1</sup> Savod o'rgatish jarayonida o'quvchilar o'qishga o'rganish bilan parallel ravishda yozuvdan ham elementar malaka hosil qiladilar. Dasturga muvofiq o'quvchilar yozuvdan quyidagi malakalarni egallashlari lozim:

1. Partada to'g'ri o'tirish, daftarni to'g'ri qo'yish, chiziqlarni chamalash, yozayotganda ruchkadan to'g'ri foydalanish, xoshiyaga rioya qilish.

2. Ish daftari yoki alifbe asosida o'zbek alifbosidagi barcha katta va kichik harflarni yozish, shuningdek, harflarni so'zda bir-biriga bog'lab yoza olish: bosma matnni yozma matnga aylantirib yozish.

3. Tahlil qilingan so'z va ikki-uch so'zli gaplarni o'qituvchi yordamida yozish.

---

<sup>1</sup> Qosimova K., Matchonov S. Ona tili o'qitish metodikasi. T. "Noshir" nashriyoti. 2009 y. 56-bet.

4. Talaffuzi bilan yozilishida farq qilmaydigan so'zlarni ko'chirib yozish va diktovka bilan yozish: yozganlarini matnga qarab, shuningdek, izoxlab o'qish bilan tekshirish.

5. Og'zaki tuzilgan hikoyadan olingan gapni yozish.

Analitik-sintetik tovush metodi tamoyiliga muvofiq, o'qish va yozuv birligi saqlanadi.

Harflarni yozishda o'qishga o'rgatishdagi tarkib asos qilib olinadi, ya'ni o'qish darsida o'quvchilar harfni o'zlashtiradilar, matnni o'qiydilar, yozuv darsida esa shu harfli so'zni yozadilar.

Yozuvga o'rgatish, birinchi navbatda, grafik malaka hosil qilishdir. Har bir malaka ham ta'lim berish, ko'nikmani shakllantirish va shu asosda qator mashqlarni bajarish natijasida hosil qilinadi.

Grafik malaka, birinchidan, qo'l-harakat malakasidir, bu harakat birinchi qarashda muskul kuchiga asoslanadi. Ikkinchidan, yozuv jarayonida nutqning o'zlashtirilgan birligi bo'lgan tovush grafik belgilarga, ya'ni harfga tarjima qilinadi. Bu yozuvga ongli faoliyat tusini beradi. Yozuvning ongliligi, birinchidan, tovush va harfning to'g'ri nisbatini, ikkinchidan, bir qancha grafik va orfografik qoidalarga rioya qilishni, uchinchidan, o'z fikrini, taassurotini ifodalashda yozuv malakalaridan foydalanishni talab qiladi.

Yozishdan birdan-bir maqsad fikrni ifodalashda yozuvlaridan foydalanish hisoblanadi. Bu maqsadni bolalar tez anglab yetsalar, ularda yozma nutq malakasi shunchalik muvoffaqiyatli va to'g'ri shakllanadi. Savod o'rgatish jarayonida bolalar juda sekin yozadilar, uz fikrini, xatto bir yozuv bilan yozma ifodalash uchun ham yarim oylar o'tadi. Yozuv malakasi o'qish malakasi bilan uzviy bog'liqdir. Bola yomon o'qisa, yozuvni egallashi qiyin bo'ladi, chunki bo'g'inlab o'qish malakasidan so'ng, bo'g'inlab yozish malakasi shakllanadi.

Yozish va o'qish uchun bolaning umumiy nutqiy rivojlanishi katta ahamiyatga ega. Keyinroq bolalarda uz fikrini yozma ifodalash malakasi bir oz barqarorlashganda, bu malaka nutqga, fikrni ifodalash jarayoniga ham ijobiy ta'sir qiladi.



Grafik malakani shakllantirishda quyidagi bosqichlar:

1. Turli shakllar andozasi ustidan chizish. Erkin rasmlar chizish. Yozuv qurollarini to'g'ri tutish, turli qiya elementlar chizish, uzunlikni, oraliq masofani chamalash va hokazo.

2. Harf elementlarini yozish, baravar masofada qisqa va uzun elementlar, osti va usti ilmoqli elementlar chizish.

3. Bosh va kichik harflarni alohida yozish, harf birikmalarini, bo'g'inni yozish, harflarni to'g'ri tushib yozish malakasini hosil qilish uchun so'z yozish. Grafik malakani hosil qilishdan asosiy maqsad, harflarni bosmasdan bir tekisda, elementlarga ajratmay bog'lab tez, bir maromda yozish, so'zlarni qatorga to'g'ri joylashtirishdir. Shuni ta'kidlash kerakki, savod o'rgatish davrida bola harflarni yozishdan oldin uni qanday shakllantirishni ko'z oldiga keltirib, fikrlab oladi, ba'zan harf shaklini havoda «chizadi», harf namunasini ko'chiradi, tarkibini tahlil qiladi, uni qanday yozishni o'zicha sekin gapiradi: o'qituvchi o'quvchi yoniga o'tirib, ruchkani to'g'ri ushlatadi va uning qo'li bilan harfni yozishni ko'rsatadi yoki o'zi yozib tushuntiradi. Bundan tashqari, bola yozuvning texnik tomoniga katta jismoniy kuch sarflaydi. Savod o'rgatish oxirida bola bir darsda 20 tacha so'zni yozishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qaroriga binoan 1993 yil 2 sentabrda «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi qonun qabul qilindi. 1995 yil 6 mayda qonunga o'zgartirishlar kiritildi. Bu alifbodagi harflarning asosiy xususiyati bosmasdan, qo'lni uzmasdan bog'lab yozishga mo'ljallangan. Shuning uchun yozuvga o'rgatish metodikasida harflarni qo'shishga alohida ahamiyat beriladi. O'quvchilar barcha harflarni bir-biriga qo'shish yo'lini bilishlari lozim.

Maktabda asosiy yozuv o'uroli sharikli ruchka, xattaxtada yozish uchun bo'rdan foydalaniladi.

Savod o'rgatish davrida bolalarni yozuvga o'rgatish uchun turli vaqtlarda turli xil chiziqli daftarlardan foydalanilgan: dastlab chiziqsiz silliq qog'oz ishlatilgan bo'lsa, keyin quyoq yopiq chiziq bilan kesilgan uch chiziqli daftardan

foydalanilgan.

Bunday daftarda yozuvga o'rgatilgan bola boshlang'ich sinflarni bitirgunga qadar besh xil daftarga yozishni o'rganishi talab etilar edi.

Hozirgi vaqtda yozuvga o'rgatish uchun ikki chiziqli daftar tavsiya etiladi. Xattaxta ham shunga mos bo'lishi talab qilinadi; 2-sinfdan, ba'zan birinchi sinfda o'quv yilining ikkinchi yarmidan boshlab bir chiziqli daftarga yozishga o'tiladi.

Daftar tutishda bolalarni xoshiya qoldirishga, daftar chiziqlariga rioya qilishga, harflarni bir xil hajmda yozishga, sarlavxani aniq va to'g'ri ajratishga, xat boshidan yozishda joy qoldirishni unutmaslikka o'rgatib borish ularda saranjom-sarishtalikni tarbiyalaydi. Yozuv darsida o'quvchilar «Yozuv daftari» bilan ishlaydilar. Sinfda o'rganilgan harfni uyda mashq qilish uchun alohida daftar bo'lgani ma'qul.

O'qituvchi yozish vaqtida 65 gradus qiyalikda yozishni, buning uchun daftar parta ustiga 25 gradus qiyalikda qo'yilishini ta'kidlab turadi.

Orfografiya grekcha «to'g'ri» va «yozaman» so'zlaridan olingan bo'lib, adabiy tilning yozma shakli bilan bog'liq. Orfografiya to'g'ri yozish haqidagi qoidalar ko'nikmasidir. Orfografiyani bilmay turib, fikrni adabiy til normalari asosida yozma ifodalab bo'lmaydi. O'quvchilarning orfografik savodxonligi qaqida g'amxo'rlik qilish tilning aniqligi, fikrni to'g'ri ifodalash, kishilar bilan o'zaro xatosiz muomala qilish uchun g'amxo'rlik demakdir. Savod o'rgatishda bolalarda grafik malakani shakllantirish bilan bir vaqtda imloga oid malakani shakllantirishga ham zamin yaratiladi.

Savod o'rgatish davrida o'quvchilar: a) talaffuzi va yozilishida farq qilmaydigan so'zlarda tovush bilan harfning mosligini; b) so'zlarni alohida yozishni, ya'ni yozuv vositasida so'zni ma'no birligi sifatida ajratishni; v) so'zning satrga sig'may qolgan qismini keyingi qatorga bo'g'inlab ko'chirib yozishni, bunda bo'g'in hosil qilgan bir unli harfni qatorga ko'chirib yozib bo'lmasligini; g) gap boshida, shuningdek, kishilar ismida, hayvonlarga qo'yilgan nomlarda bosh harfning ishlatilishini amaliy tarzda o'rganadilar.

Savod o'rgatish davridayoq ko'chirib yozish, diktant va ijodiy yozuvlardan

foydalaniladi. O'z-o'zini tekshirishga o'rganadilar.

Yozuv darslarida ham o'quvchilar nutqini o'stirish, fikrlashga o'rgatish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Shu bilan birga ushbu davr o'quvchilarni to'g'ri va chiroyli savodli yozishlari uchun asosiy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

### **1.3. Boshlang'ich sinf savod o'rgatish darsida o'quvchilar nutqiga qo'yilgan talablar**

Talimning yangi mazmuni o'quvchilarning har tomonlama kamol topishida, ularni faollashtirishga qaratilgandir. Ayniqsa, bolalarni xat-savodga o'rgatish, lug'atini boyitish, nutqlarini rivojlantirish orqali boshqa o'quv fanlarini o'zlashtirishlariga erishmoq lozim. Xat-savodga o'rgatish ta'limning muhim bosqichi bo'lib, bu davrda o'quvchilarga to'g'ri o'qish, chiroyli yozish hamda o'qiganlarini so'zlab berish o'rgatiladi. Nutqni gaplarga, gapni so'zlarga ajratish, tovushlarni eshitib va talaffuz qilib bir- biridan farqlash, so'zda tovushlarning birin-ketinligiga etibor berishni ham bilib olishlari ta'minlanadi.

Xat- savod o'rgatish ishlarida bolalarni kesma harflar bilan ishlashga o'rgatish alohida ahamiyat kasb etadi. Ular yordamida bolalar, bo'g'inlar tuzishga tez o'rganadilar. Ochiq va yopiq bo'g'inlarni turli ko'rinishidan tuzilgan gaplar tuzishni ham mashq qiladilar. Kichik matnlarni ovoz chiqarib, bo'g'inlab, ongli, to'g'ri va ravon o'qishga o'rganadilar. Bu davrda bolalarni sidirg'a, yani, so'zlarni butunicha o'qishlariga alohida ahamiyat berish lozim. Bola avval ichida bo'g'inlab o'qisin, so'ng ovoz chiqarib so'zni butunicha aytsin.

O'qish yozuv bilan uzviy bog'lab olib boriladi. Bu usul bolalarning og'zaki va yozma nutqini baravar rivojlanishiga yordam beradi.

Xat-savod o'rgatish davrida bolalarni bosma harflar bilan yozma harflarning o'xshash tomonlarini farqlab, bosma harflarni yozma ravishda ko'chirib yozishga ham o'rgatish foydalidir. Chunki, ular ko'pincha bosma harflarni aralashtirib yozib qo'yadilar. Shunday paytda ular etiborini yozuv namunalariga jalb qilish, yozuvlarini to'g'ri va chiroyli bo'lishiga erishmoq lozim.

Bolalarning og'zaki nutqini rivojlantirish ishlari ham bu davrning asosiy

vazifalaridan biridir.

O`quvchilar:

- a) o`qituvchinig savollariga to`liq va aniq javob bera olish;
- b) rasmga qarab bog`lanishli nutq tarzida hikoya qilish;
- v) o`yin va mehnatlarini gapirib berishga, o`rgatib boriladi.

O`quvchilar ro`yxatini boyitishga, yangi o`rganilgan har bir so`zning ma`nosini puxta o`zlashtirishlariga e`tibor beriladi.

Alifbo davrida bolalarga tovush-harfni o`rgatishda dastlab yozilishi, talaffuziga mos keladigan so`zlar tanlanadi. Bolalarni yozuvga o`rgatishda so`z tarkibidagi harflarning to`g`ri, aniq yozilishi va qo`shilishiga, daftarlarini ozoda tutishiga bolalar etibori tortiladi. Bu davrdagi darslarni maqsadga muvofiq tashkil etish o`quvchilar bilimining kelgusida pishiq-puxta bo`lishiga mustahkam zamin yaratadi. O`quvchining bu sohadagi muvaffaqiyatlari uning dars o`tish usullari, darsda qo`llaydigan didaktik materiallariga ko`p jihatdan bog`liqdir. Buning uchun o`qituvchi doimo izlanishi, har darsda yangi-yangi usullarni joriy qilishi, o`z bilimini boyitib borishi lozim. Hozirgi paytda o`qituvchi uchun uslubiy qo`llanma chiqqan, 1- sinf uchun. Bu kitob o`qituvchilarga katta yordam beryapti, chunki u yerda namunaviy dars ishlanmalar ko`rsatilgan har mavzuga, darslikdan tashqari to`ldiruvchi materiallar berilgan va Davlat ta`lim standarti asosida ajratilgan har blokida ko`rsatilgan.

Savod o`rgatish ishlarini to`g`ri tashkil qilish uchun quyidagilarga etibor berish lozim:

- 1) Ta`limning didaktik jihatlariga etibor berib, uni so`nggi yutuqlar bilan to`ldirib borish;
- 2) o`quvchilarning yosh va fiziologik jihatlariga etibor berish;
- 3) ularga mustaqil faoliyatni rivojlantirish usullarini keng qo`llash;
- 4) o`qish va yozishning uzviyligiga e`tibor berish;
- 5) alifbo va unga qo`shimcha materiallardan ijodiy foydalanish.

Savod o`rgatishda ta`lim-tarbiyaning zamonaviy tamoyillariga, xalq pedagogikasi an`analariga, milliy qadriyat va ahloqning odob mezonlariga qat`iy

rioya qilish, o`quvchilarning ruhiy holatlari va o`qish-o`rganishga qiziqish darajalarini hisobga olish, yozuvga o`rgatishda ularning tovush-harflarni aniq farqlay olishiga etibor beriladi.

Savod ta'limida o`zbek tili nutq tovushlarining paydo bo`lish o`rni va usulini bilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Nutq tovushlarining paydo bo`lish o`rni va usuli esa nutq a'zolarining tuzilishi va harakati bilan bog`liqdir. Nutq tovushlarini hosil qilishda quyidagi nutq a'zolari ishtirok etadi:

- a) o`pka joylashgan ko`krak qafasi;
- b) bo`g`iz;
- v) burin bo`shlig`i;
- g) og`iz bo`shlig`i va til;
- d) milk va tish;
- ye) lablar.

Savod ta'limidagi asosiy maqsad va vazifa bolalarda yozish va o`qishni o`rganishga ishonch hosil qilish, o`z bilganlarini hech tortinmay, erkin, burro-burro, mantiqiy va ifodali gapirishga o`rgatishdan iborat.

Savod ta'limida bolalarning yosh hususiyatlarini hisobga olgan holda, ularning xotirasi, diqqati, nutqi, tafakkuri va idrokini tarbiyalash eng muhim omillardan sanaladi.

### **Nutq tovushlari tasnifi.**

Nutq tovushlari ikki turli bo`ladi: unli tovushlar va undosh tovushlar.

Ovoz dangina iborat bo`lib, og`iz bo`shlig`iga hech qanday to`siqqa uchramay hosil bo`ladigan tovushlar unli deb yuritiladi. O`zbek adabiy tilidagi unli tovushlar quyidagi harfiy belgilar bilan ifodalanadi: i, a, o, o`, u.

O`qishda to`siqqa uchrab, shovqindan hosil bo`ladigan yoki qisman shovqin ishtirok etadigan tovushlar undosh tovushlar sanaladi. Bular quyidagi harfiy belgilar bilan ifodalanadi: b, d, f, g, x, j, k, l, m, n, p, q, r, s, t, v, h, y, z, g`, sh, ch, ng tutuq belgisi harf emas, imlo belgisi tarzida o`rgatiladi. Savod o`rgatish uch bosqichga bo`linadi:

- a) tayyorgarlik davri( alifbogacha bo`lgan davr);
- b) alifbe davri;
- v) alifbedan keyingi davr (o`qish davri).

Boshlang`ich talim “Ta`lim to`g`risida”gi Qonunni hayotga tadbqiq etishda muhim bosqich hisoblanadi va unda ona-tili o`qitish asosiy o`rin egallaydi. Ona tili dasturi quyidagi bo`limlarni o`z ichiga oladi:

- 1) savod o`rgatish va nutq o`stirish;
- 2) o`qish va nutq o`stirish;
- 3) fonetika, grammatika, imlo va nutq o`stirish.

Davlat ta`lim standartida 1- sinfda savod o`rgatish va nutq o`stirish bo`limiga 128 soat ajratilgan. Bu bo`lim uch bosqichdan iborat.

Savod o`rgatish davri sentabr oyidan, to dekabr oyining oxirigacha bo`lgan muddatni, yani 2-o`quv choragini qamrab oladi. Savodga o`rgatish jarayoni tayyorgarlik va alifbe davridan tashkil topadi. Tayyorgarlik va alifbe davrida talim savodga o`rgatishning tahlil-tarkib, analitik- sintetik, tovush usulida amalga oshiriladi. Savodga o`rgatishning tahlil – tarkib usuliga ko`ra matndan gap, gapdan so`z, so`zdan bo`g`in va tovush, yoki aksincha, tovush >bo`g`in >so`z >gap >matn uzviy aloqada butundan bo`lakka, bo`lakdan butunga qarab tahlil va tarkib qilinadi. Bu esa, o`quvchi tafakkur faoliyatini onglilik, tushunarlilik, mantiqiylik, ilmiylik kabi didaktik mezonlar asosida rivojlantirish imkoniyatini vujudga keltiradi.

Boshlang`ich talimning ilk savodga o`rgatish davridanoq o`quvchi nutqini yangi so`zlar hisobiga boyitishga alohida e`tibor qaratiladi.

“Alifbe” darsligida berilgan yangi so`zlar matn, hikoyacha va she`rlardan foydalanib, o`quvchilarni so`z ma`nosi bilan atroflicha tanishtirish, she`riy va nasriy matnlarni yodlatish, qayta hikoyalashga etibor beriladi. Shuningdek , sinfdan tashqari o`qish darslarida o`quvchini bolalar adabiyoti namunalar bilan tanishtirib borish, ularni mustaqil o`qishga, ota- onalar va o`quvchilar yordamida badiiy o`qishga qiziqtirish nutqini boyitish va rivojlantirishga yordam beradi.

Davlat ta`lim standartida 1-sinf tayyorgarlik darslari uchun **8** soat ajratilgan.

Tayyorgarlik davri asosan bolalar jamoasini tashkil etish, ularda do'stlik va o'rtog'likni qadrlash, sinf va maktabda o'zini yaxshi tutish, odob- ahloq qoidalariga amal qilish, eng muhimi, bolalarda dastlabki kunlardan o'qish, o'rganishga havas uyg'otishdir.

Tayyorgarlik davrida bolalar nutqini o'stirishga, tevarak- atrofdagi narsalar haqida gapirib berishga, rasmlarni tomosha qilib, mazmunini so'zlab berishga o'rgatiladi. Xat-savod o'rgatishning tayyorgarlik davrda, o'quvchi, asosan, quyidagi tushuncha, malaka va ko'nikmalarni egallaydilar (o'qish darsi):

- o'quv predmeti mazmuni asosida tashkil etiladigan dars haqidagi amaliy ko'nikma; darsning muayyan vaqt oralig'ida davom etishi; dars jarayonida o'quvchi haqida tushuncha:

- rasm mazmunini aniqlash, rasm mazmuni asosida mantiqiy izchillikka ega bo'lgan matn tuzish:

- darslik bilan ishlash, og'zaki nutq haqida tushuncha:

- yozma nutq, gap haqida tushuncha:

- so'z va bo'g'in haqida tushuncha:

- unli va undosh tovush haqida tushuncha:

- maktab partasiga to'g'ri o'tirish:

- darslikdan foydalanishga oid ilk o'quv ko'nikmalarini shakllantirish:

Xat - savod o'rgatishning asosiy alifbe davri tashkil etadi. Alifbo davrining asosiy vazifasi bolalarning og'zaki nutqini o'stirish, tovush talaffuzini yaxshilash, o'zbek tili alifbosidagi barcha harfiy, imloviy belgilarni o'rgatishdan iboratdir.

Shuningdek, Davlat ta'lim standartida alifbe davri uchun **120** soat berilgan va o'qish ko'nikmalari, mazmuni.

O'qishga o'rgatish:

- unli va undosh tovushlar, ularning talaffuziga xos farqlanish haqida ma'lumot berish;

– harf va tovush munosabatiga oid tushunchalar bilan o`quvchini tanishtirish;

– kesma harf va bo`g`inlar asosida so`z hosil qilish, tuzilgan so`zlarni to`g`ri o`qish;

– so`zlarni avval bo`g`inlab, so`ngra bo`g`inlab ravon o`qishga o`rgatish;

– tinish belgilariga rioya qilib, ifodali o`qishga o`rgatish;

– o`qish jarayonida amal qilinishi lozim bo`lgan gigiyena qoidalariga rioya qilishga o`rgatish.

O`qish ko`nikmalari:

– o`quv yilining birinchi yarmida 20-25 sonli matnni to`g`ri, ongli, bo`g`inlab o`qish;

– bir bo`g`inli va sodda tuzilishdagi ikki bo`g`inli so`zlarni yaxshi o`qish.

Notanish matnni tezligi, 20-25 so`z.

Og`zaki nutq madaniyatini egallash, unga xat hususiyatlarini bilish; o`quvchidan gap va nutqni grammatik, stilistik jihatdan adabiy til me`yorlariga rioya qilgan holda tuzishga o`rgatish. Og`zaki nutqni rivojlantirish uchun o`quvchi lug`at boyligini izchil oshirib borish, gapning sintaktik tuzilishiga oid bilimlarni amaliy jihatdan egallash, nutqni birliklari mantiqiy uyg`unlikni ta`minlashga oid malakalarini rivojlantirish, yangi harf- tovushga bog`lab tavsiya etilgan so`z ma`nosini o`quvchiga to`liq anglashilishiga erishish, rasm asosida o`zaro bog`langan kichik hikoyachalar tuzishga o`rgatish.

O`quvchining bog`lanishli nutqini o`stirishga oid ta`lim ishlarini amalga oshirish:

– rasmlar asosida hikoya tuzish;

– rasm mazmuniga mos sarlavha toptirish;

– “Alifbe” darsligi va sinfdan tashqari mashg`ulotlarda o`rganilgan o`quv materiallarini qayta hikoyalash;

– savollarga to`liq va burro javob berish;



- adabiy nutq meyorlarini amaliy jihatdan o`rgatishga etibor qaratish;
- topishmoq, maqol, hikmatli so`zlar ustida ishlash;
- kichik guruhlar bilan ishlashda o`quvchilarning aqliy intellektual jihatdan teng guruhlariga taqsimlash;
- guruhlariga bog`lanishli matn tuzishga oid muammoli topshiriqlar berish;
- guruhlar javobini sharhlash asosida g`olib guruhni rag`batlantirish;
- individual holda ishlash;
- so`zlarni yahlit, gaplarni ifoda mazmuniga mos ohangda o`qishga erishish;
- qahramonlar karakterini ohang orqali ifodalash;
- matn ichida qo`llanilgan tinish belgilariga rioya qilish malakasini shakllantirish;
- 4 va 8 misrali she`rlarni yod oldirish;
- lug`at ustida ishlash;
- o`quvchi nutqini boyitish, ular nutqida kam qo`llaniladigan so`zlarni alohida yozdirib borish;
- dars jarayonida lug`at daftaridagi so`zlarning ishlatilishiga e`tibor berish...

O`quvchilar ona tili darsida ongli o`qishni, to`g`ri va chiroyli yozishni, fikrni og`zaki va yozma erkin bayon qilishni o`rganadilar, tevarak atrofdagi hayot, tabiat hamda kishilar mehnati haqida bilim oladilar. Ona tilini o`rgatishdagi asosiy vazifalardan biri nutq o`stirishdir. O`quvchilar nutqini o`stirish yuzasidan qilinadigan ishlar o`qish, grammatika, imlo darslarida ham olib boriladi.

O`quvchilarning og`zaki va yozma nutqini o`stirish, nutq tovushlarini to`g`ri talaffuz qilish, lug`at boyligini oshirish, o`rganilgan so`zlarni nutqda o`rinli ishlatish, gapni to`g`ri tuza olish ko`nikmalari birinchi navbatda va asosan, ona tili darslarida hosil qilinadi.

O`quvchi o`z fikrini tinglovchilarga tushunarli qilib bayon etishi uchun tegishli so`z boyligiga ega bo`lishi kerak.

Bunda savod o`rgatish davrida olib borilayotgan ishlar alohida ahamiyat kasb etmoqda. O`quvchining so`z boyligi qanchalik yaxshi rivojlangan bo`lsa, uning nutqi shunchalik tushunarli, ravon, ta`sirchan bo`ladi.

Har bir bola maktabga kiringunga qadar ma`lum so`z boyligiga ega bo`ladi. O`qituvchining vazifasi avvalo bolaning so`z boyligini, uning nutqidagi ayrim kamchiliklarni aniqlab, bu kamchiliklarni bartaraf etishning, bola nutqini o`stirishning usullarini belgilashdir.

O`quvchilar nutqini o`stirishda o`qituvchining nutqi namuna bo`lishi kerak. O`qituvchi adabiy til me`yoriga rioya qilishi, uning nutqini sodda, bolalar tilida sodda, tushunarli, yoqimli jozibador bo`lishi lozim.

O`quvchilarning darsda diqqat e`tibor bilan o`tirishi, o`qituvchining o`quv materialini tushuntirish va anglatish usullarigina emas, balki uning nutqini go`zal va ta`sirchangligiga ham bog`liqdir.

Dars davomida yoki darsdan tashqari vaqtlarda o`quvchilar bilan ularning oilalari haqida, uy ishlarida qanday yordam berishi, o`yinlari, sayr vaqtida kuzatgan hodisalari haqida suhbat o`tkazish o`quvchini yaxshi bilishiga yordam beradi.

O`quvchilar nutqini o`stirish ishlari tayyorgarlikni materiallarning xilma-xil va qiziqarli bo`lishini talab etadi.

Nutq o`stirish ishlarining xilma-xillarda o`tkazish bolalarning faolligini oshiradi, lug`atini yangi-yangi so`zlar bilan boyitadi, ularda bog`lanishli nutq malakalarini rivojlantiradi.

Nutq o`stirishda o`qituvchilar quyidagilarga etibor berishi kerak:

1. O`quvchilarni savolga “ha” yoki “yo`q” deb emas, balki to`liq javob berishga o`rgatish;
2. Ularga darak, so`roq, undov belgilariga rioya qilish malakasini tarbiyalash;

3. Ifodalilikka, to`xtash, ohang va urg`uga e`tibor qilish;
4. O`quvchining ruhiy holatini hisobga olgan holda nutq o`stirish ishlarini rejalashtirish;
5. Nutqida kamchiligi bor bolalarni guruhlarga bo`lib, ishlash;
6. O`quvchi nutqidagi kamchiliklarni kuzatilishi;
7. Namunaviy nutqni diskka yozib olib, o`quvchilarga eshittirish.

O`quv darslarida o`quvchilar nutqini o`stirish, ularning faoliyatlarini mazmunini o`zlashtirish imkoni yaratiladi. Badiiy matnlarni tahlil qilish usuli orqali o`quvchilarning nutqini o`stirish maqsadga muvofiqdir.

Malumki, so`zlashish tili nutq o`stirishning dastlabki bosqichi hisoblanib, asta-sekin takomillashib boradi. So`zlashuv tili esa o`qilgan matnlarni og`zaki hikoya qilishda namoyon bo`ladi. So`zlashuvga o`rganish barcha darslar singari amalga oshadi.

O`quvchilarning og`zaki va yozma nutqlarini me`yorlashda, milliy tilning tabiati va o`ziga xos xususiyatini belgilashda, ifoda va talaffuz qonuniyatlarini aks ettirgan holda o`stirish, adabiy til me`yori va mezonlariga rioya qilish, o`qish metodlarini takomillashtirish yo`llarini izlash va eng qulayliklarini amaliyotga tatbiq qilish lozim.

Bolalarning o`z fikr mulohazalarini ifodalashlari uchun savol- javobli nutqni egallashlariga ko`proq o`rin beriladi. His- tuyg`uli nutq, fikrli, ta`sirli ifoda etish o`quvchilarga zavq- shavq bag`ishlashi lozim.

O`quvchi yakka holda gapirishi o`rgatishga qaratilgan talablar: rasmlar vositasida so`zlashuv, eshitganlarini tartib bilan ifoda etish. Nutq o`stirish bilan bolalarning tasavvur va tafakkur qilish faoliyatlarini bog`liq holda uzviy rivojlantiradi. Shuningdek, bolalarni o`qituvchi rahbarligida tayanch so`zlar yordamida o`z fikrlarini bayon qilish, shunday usullar bilan ular lug`atining ortib borishiga erishiladi. Bolalarni faollikka o`rgatish uchun ma`nodosh so`zlarni topish o`yinlarini tashkil etish, bunday so`zlarni nutqda o`rinli qo`llashni, gap tuzishda esa so`zlarning orasida o`xshatishlar topish kabi ishlar doimiy ravishda o`tkaziladi.

Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining yod olish qobiliyatlarini rivojlantirish borasida o'tmishdagi maktablar tajribasi juda qo'l keladi. Qadimda maktablarda o'quvchilar o'qiganlarini yod olish usullarini o'zlashtirib olganliklari uchun xotiralari yaxshi bo'lgan.

O'qituvchi nutqi bolalar uchun namunadir.

Endilikda nutq odobi, nutqiy mahorat, notqlik mahorati maktablar hayotidan keng o'rin olmog'i lozim.

O'qituvchi o'z nutqini bolalarga qanday tasir etayotganini kuzatishi, tushunarli va qiziqarli bo'lganini hisobga olishi kerak.

#### **1.4. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini yozuvga o'rgatish metodlari.**

Savod o'rgatishning tayyorlov hamda asosiy davri va undan keyingi davrda o'quvchilarni savodli yozishga o'rgatishda quyidagicha metodlardan foydalaniladi. Metodlar asosan o'qish jarayoni bilan birgalikda olib boriladi. Chunki o'quvchilar savodli o'qish jarayonidagina savodli yozish malakalarini o'zlashtiradilar.

Analitik- sintetik metod.

Analitik-sintetik tovush metodiga K.D.Ushinskiy asos solgan. Bu metod hozirgi kunga qadar ancha takomillashdi. Shu bois anaiitik-sintelik tovush metodi an'anaviy tamoyillarga va shakllanish, tashkil topish jarayonida bo'lgan tamoyilarga ega. Metodning an'anaviy tamoyillari quyidagilar:

1. Savod o'rgatishda analitik-sintetik tovush metodi shaxsni shakllantirish maqsadiga ko'ra ta'limiy va o'stiruvchi xarakterda bo'ladi, nutqiy mashqlar orqali aqlning o'sishini ta'minlaydi, o'qishning ongli olishini talab etadi.

Analitik sintetik tovush metodida savod o'rgatish jarayoni 4 oy davom etadi. Bu jarayon 2 davrga bo'linadi:<sup>1</sup>

A) alifbegacha tayyorgarlik davri (2 hafta),

B) alifbo (asosiy) davr 31 dekabrgacha davom etadi.

Alifbogacha tayyorgarlik davri, o'z navbatida, 2 bosqichga bo'linadi:

A) harf o'rganilmaydigan bosqich (2 hafta).

---

<sup>1</sup>Abdullayeva Q., va boshqalar "Savod o'rgatish darslari" T., "O'qituvchi"1996 yil. 18-bet.

B) unli tovush va harf o'rganiladigan bosqich (2 xafta)

Savod o'rgatish jarayonidagi darslar predmetiga ko'ra ikki turli:

A) "Alifbe" darsligi asosidagi o'qish darslari;

B) "Yozuv daftari" asosidagi yozuv darslari.

1-bosqichning asosiy vazifasi o'quvchilarni maktab, sinf bilan, tartib-intizom qoidalari bilan tanishtirish. Ularga nutq, og'zaki va yozma nutq haq'ida, gap, nutqning gaplardan tuzilishi, so'z gaplarning so'zlardan tuzilishi; bo'g'in, so'zlarning bo'g'inlardan tuzilishi, so'zlarning bo'g'inlarga bo'linishi; tovush, bo'g'inlarning tovushlardan tuzilishini; tovushlarning unli tovush va undosh tovushlarga ajratilishini o'rgatish, ulardan amaliy foydalana bilish ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat. Bu davrda maxsus nushalar asosida o'quvchilarning bog'lanishli nutqi ustida ishlanadi. Ularga «Alifbe»da berilgan rasmlar asosida hikoyalar tuzdirishdan tashqari, o'zlari bilgan she'r, ertak, hikoya, tez aytish, maqol, topishmoq, halq ashulalari, alla, qo'shiqlar, latifalardan aytirish lozim.

Tayanch so'zlar asosida gap tuzdirish, «Alifbe» sahifalaridagi so'zlar, ularning ma'nolari ustida ishlash kabi ishlar uyushtiriladi. (Bu tarzdagi ishlar har bir darsda mavzularga bog'liq ravishda izchil davom ettirib boriladi.)

Bu bosqichdagi yozuv darslarida o'quvchilarda daftar bilan, yozuv chiziqlari bilan tanishtirish, harf elementlarini yozishga o'rgatish, namunaga qarab grafik xatolarini aniqlash - o'z-o'zini tekshirish, harf oralarining tengligiga rioya qilish kabi ko'nikmalar hosil qilinadi.

2-bosqichda unli tovush va unli harflar o'rgatiladi. Bunda ularning uch xususiyatini: a) orizda to'siqqa uchramasligi; b) cho'ziq aytylishi; v) tarkibida faqat ovoz qatnashishi kabilarni o'quvchilarning amaliy ravishda puxta egallashlariga erishish lozim.

Shuningdek, bu bosqichda tovush bilan harfni farqlashga o'rgatish ko'zda tutiladi. Bu bosqichdayoq tovush va harf o'rtasidagi chegaraga qat'iy rioya qilinadi. Bolalarga tovush qaqida ma'lumot kitob o'chtirilmay beriladi. Tovushni ifodalovchi harf ko'rsatilgach, harf ustida ishlanadi. Tovush va harfga oid xususiyatlar (tovushlarni talaffuz qilamiz, eshitamiz, harflarni yozamiz, ko'ramiz, o'qiymiz)

ham izchil ravishda o'quvchilarni o'zlashtirishlarini xisobga olgan xolda ochila boriladi.

Alifbo davri. Bu davr 31 dekabrgacha davom etadi. Unda asosan o'quvchilar undosh tovush va undosh harflar bilan tanishtiriladi. Undoshlar osondan qiyinga tamoyili asosida joylashtiriladi. Oldin sonor tovushlar (n, m, l,) keyin esa b, k, d, t, s kabi undoshlar so'ngra ikki tovushni ifodalaydigan j harf birikmalari (pd s b), tovush bildirmaydigan harf-tutuq belgisi bilan tanishtiriladi. Tovush va harfni yaxshi tanishlari, elementar o'qishni muvoffaqiyatli egallashlari uchun bo'g'inga bo'lish, bo'g'in chegarasini aniqlash, bo'g'indan tovushni ajratish, tovush va harf munosabatini aniqlash, kesma harflardan burini tuzish va o'qish, bo'g'in-tovush, tovush-harf, tahlili kabi mashqlardan foydalaniladi.

Bu davrda bo'g'inlab o'qish asosi shakllantiriladi: ikki harf yopiq, ikki harfni ochiq, uch harfli yopiq bo'g'inlar (il, ol, la, lo, nom, lim) o'qishga o'rgatiladi.

Alifbo davrini o'rganiladigan tovush-harfning murakkabligini hisobga olib 3 bosqichga ajratish mumkin:

1-bosqichda o-na, a-na, il, in, bi-lan, tuzilishidagi so'zlar;

2-bosqichda artikulyatsiyasi qiyin bo'lgan r, k, v, f kabi undoshlar va yo'l-bars, do'st, rasm kabi tuzilishidagi so'zlar;

3-bosqichda 2-bosqichda harf birikmalari pd, s, z, 2 tovushni ifodalaydigan, tutuq belgisi va jurnal, jirafa, tong, so'ng, bodring, choynak, shudring kabi so'zlar o'qishga o'rgatiladi.

Alifbe davrining oxirida o'quvchilar quyidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari zarur:

A) Hamma tovushlarni tanishi va har qanday xolatda to'g'ri talaffuz qilishi;

B) So'zni bo'g'in tovush, tovush-harf tahlilini bilishi, so'zdagi tovushlarning izchil tartibini aniqlay olishi, kerakli tovushni so'z va bo'g'inga ajrata olishi;

V) Kesma harf va bo'g'inlardan so'z tuza olishi va o'qishi;

G) 2-3-4 bo'g'inli so'zlarni butinlab o'qishi, adabiy-orfoepik talaffuz bilan o'qishi;

D) Gaplarni ohangiga rioya qilib o'qishi;

E) O'qigan matnning mazmunini tushunib, ongli o'qishi;

J) O'qigan matn mazmunini savollar asosida soddagina qilib qayta hikoyalab berishi;

Z) O'qigan matnga sarlavxa topishi;

I) To'g'ri, tez, ongli va ifodali o'qish malakalari shakllantirilishi.

Alifbo davri yozuv darslarining vazifasi - kichik va bosh yozma harflarni to'g'ri shakllantirish, harflarni to'g'ri ulash, alifbeda o'qigan bo'g'in, so'z va gaplarni namunaga qarab yozish, harf, bo'g'in, so'z, gap diktantlarni yozish ko'nikmasini shakllantirish, izoxli, saylanma, ko'ruv, ta'limiy, diktant yoza olishlariga erishish, umuman grafik malakani shakllantirish. Sovod o'rgatish jarayonining oxirida bir darsda, agar darsning 2/3 qismi yozuvga ajratilsa, 20 tagacha so'z yoza olishlari talab qilinadi.

Ma'lumki, o'quvchilar 1-sinfga har xil tayyorgarlik bilan keladi. O'quv materiallari 1-sinf o'quvchilari saviyasiga mos, izchil ravishda beriladi. Shunga qaramay har xil tayyorgarlik bilan kelgan o'quvchilarning uni o'zlashtirishlari turlicha bo'ladi. Bu savod o'rgatish jarayonida o'quvchilarga differentsial va individual yondashishni taqozo etadi. Bunday yondashish ta'limning barcha bosqichlarida ham yaxshi natija beradi.<sup>1</sup>

Differentsial yondashishda o'quvchilar guruhlariga bo'linadi, har bir guruhning saviyasiga va imkoniyatiga mos topshiriqlar beriladi. Sinf o'quvchilari 3 guruhga bo'linishi mumkin. Topshiriqlar ham 3 variantda ishlab chiqiladi.

O'qituvchi sinfda frontal ishlash jarayonida 3 guruhdagi o'quvchilar bilan parallel ish olib boradi. 3 guruh uchun ham o'quv materiallari alifbe hisoblanadi, unga qo'shimcha alifbe uchun qo'shimcha tarqatma materiallardan, jadvalardan mustaqil ishlardan foydalaniladi.

Alifbedagi o'quv materiallari yoki o'qilayotgan matnning qiyin o'rnini oldin tayyorgarligi puxta o'quvchiga, so'ng bo'sh o'quvchiga o'qitiladi. Ba'zi o'quvchilar bilan darsdan tashqari vaqtda yakka tartibda ishlar olib borishga ham to'g'ri keladi.

Yangi material o'rganiladigan o'qish darsida ishning asosiy turlari:

---

<sup>1</sup> Qosimova K., Matchonov S. Ona tili o'qitish metodikasi. T "Noshir" nashriyoti 2009 yil. 48-bet.

o'rganiladigan yangi tovushni so'zni (shu tovush so'z boshida, o'rtasida, oxirida kelgan so'zni) bo'g'in-tovush tomonidan tahlil qilish bilan ajratish. Yangi tovush ajratiladigan so'zni o'quvchilar rasm asosida o'zlari tuzgan gaplari ichidan oladilar. Tovushni ajratishda shu so'zning sxemasi - modeliga asoslanadilar. Masalan, archa. Tovushlarni eshitish, talaffuz qilish; artikulyatsiyasi (nutq organlarining tovush chiqarishidagi ishi) mashq qilinadi.

Kichik va bosh harflar bilan tanishtiriladi. Bo'g'inlar o'qitiladi.

So'zlarni avval doskada, keyin «Alifbe»dan o'qish. Harf bo'g'inlardan harf terish kartonida so'z, so'z birikmasi, gap tuzish (ursh), so'z ma'nosi ustida ishlash.

Matnni o'qish va tahlil qilish, uni qayta o'qish, rasmni tekstga bog'liqligini belgilash.

Nutq o'stirish: lug'atni boyitish, so'z birikmasi, gap, bog'lanishli hikoya tuzish.

Umumlashtirish: yangi harfni jadvalga qo'yish, yanga o'rganilgan tovushni unli va undoshga kiritish, yangi harfni ilgari o'rganilganlar bilan qiyoslash, tovush va harfning ahamiyatini takrorlash va hokazo.

O'rganilganlarni mustahkamlash darsida yangi tovushni ajratish, yangi harf bilan tanishtirish mashqidan tashqari barcha ish turlaridan foydalaniladi, shuningdek, qo'shimcha so'zlar va matnlar bilan ishlanadi; matnni o'qish va tahlil qilishga, ko'rgazma vositalar bilan ishlashga (harfni terish karton, magnit doskasi, abak, sirli mato, rasmlar va b.) nutq o'stirishga, o'yinlar va qiziqarli materiallarga, ilgari o'rganilgan tovushlar va harflarni takrorlab mustahkamlashga alohida ahamiyat beriladi, tarqatma materiallardan ham foydalaniladi.

Birinchi uchragan so'zlar bilan ishlash: ochiq bo'g'in har bir undosh bilan tuziladi va o'qiladi, yopiq bo'g'in esa unli bilan tuzilgan ochiq bo'g'inni o'qib keyingi undosh o'qiladi va so'z to'liq o'qiladi.

Yangi so'z urg'usi qo'yilgan holda beriladi, bu uni o'qishga, bo'g'inlab o'qishdek sintetik o'qishga (so'zni butunligicha o'qishga) yordam beradi.

Yangi so'zni doskada katta bosma harflar bilan yozish, o'quvchilarga o'qitish tavsiya qilinadi. So'z shivirlash bilan o'qiladi, kesma harf bo'g'in bilan yoziladi.

Syujetli (rasmning asosiy mazmunini bildiradigan) rasmga qarab o'qituvchi



yordamida, uning yo'llovchi so'roqlari asosida hikoya tuzish, undan gapni ajratish va analiz qilish.

Yangi bo'g'in, so'z tuzishda harf terish matosi, magnit doskasi, sirli mato kabilarning va yangi so'zni doskada va daftarda «yasash»ning ahamiyati juda katta. O'qish uchun xilma-xil bosma materiallardan qanchalik ko'p bo'lsa, ulardan turli xil mashqlar tuzishda foydalanilsa, o'qish shunchalik ongli, qiziqarli bo'ladi, malaka puxta shakllantiriladi.

Bola endigana o'qiy boshlagan bosqichda ularni qatorni yo'qotmaslikka, shuningdek, hatto, so'zdagi keyingi harfni, keyingi so'zni yo'qotmaslikka o'rgatish juda muhimdir. Bu vazifani savod o'rgatishning boshlang'ich bosqichida xatcho'p (o'qiyotgan betni belgilab qo'yish uchun kitob ichiga solib qo'yiladigan qog'oz yoki lentacha) va tayoqcha bajaradi. O'qilayotgan qatorni kuzatib borish ko'nikmasi sinf o'quvchilaridan o'rtog'ining xatosini to'g'irlashini talab qilish bilan ham erishiladi. O'quvchilar bu talabni qizg'anib bajaradilar, shu yo'l bilan ularda darsga, o'qishga e'tibori jalb etiladi.

Savod o'rgatishning birinchi kunlaridanoq o'qish ongli bo'lishi, bolalarni ongli o'qishga o'rgatish juda muhim. So'roqlar yordamida o'qilganlarni bola qanday tushungani aniqlanadi, tekshiriladi. O'qishdan oldin o'tkazilgan tayyorlov suhbat ham, o'qilgan matn yuzasidan o'tkazilgan suhbat ham shu maqsadga - ongli o'qish uchun xizmat qiladi. Sharoitga qarab, bolalarga nimanidir o'qishni talab qiladigan problemali holatni yaratish ham zarur. Bunday problemali holatning javobini «Alifbe»dan yoki harf terish matosidan o'qiladigan topishmoq yaratishi mumkin. Bunday maqsadni problemali savolni keltirib chiqaradigan taxminiy suhbat yordamida ham amalga oshiriladi. Masalan, «qishda qushlar qaerga uchib ketadilar?» (harf terish matosida: «Issiq o'lkalarga uchib ketadilar.) Mana shu kabi tayyorlov mashg'ulotlari o'qishning yuqori darajada ongli bo'lishini ta'minlaydi va shu bilan birga, bolalar ko'z ushida o'quv mehnati o'zlashadi, ularni qiziqtiradi.

Ongli o'qishni ifodali o'qishdan ajratib bo'lmaydi. Ammo analitik o'qishning birinchi bosqichida ifodali o'qish mumkin emas, chunki bolalar so'zda urg'uli bo'g'inni ajrata olmaydilar, tugallangan intonatsiyani, so'roq intonatsiyasini, hatto,

orfoepik to'g'ri o'qishni ham bera olmaydilar. Shuning uchun analitik o'qish bosqichida so'zni yaxlit, orfoepik qayta o'qish tavsiya qilinadi. Bunday qayta o'qish to'g'ri intonatsiyaga, ifodalilikka rioya qilib o'qishga o'rgatibgina qolmay, o'qishning ongli bo'lishiga ham yordam beradi.

Savod o'rgatishning birinchi darslaridayoq o'quvchilarga tabaqalashtirib (differentsial) yondashish (bunda o'quvchilarning o'qishga tayyorgarliklaridagi farqlari xisobga olinadi) amalga oshiriladi.

Fonetik ishlar soxasida jarangli va jarangsiz undoshlarni taqqoslashga, ularning so'z ma'nosini farqlashdagi faoliyatini aniqlashga oid mashqlar o'tkaziladi (ziyrak-siyrak, dil-til kabi). Artikulyatsiyasi qiyin bo'lgan undoshlar ng (long), lab-tish undoshi - v, qorishiq undosh s, ch, jarangli portlovchi - j va jarangli sirg'aluvchi - j kabilarni o'rganishda tovush artikulyatsiyasiga oid ishlar qiyinlashadi.

Asosiy davrning oxirlarida jarangsiz jufti talaffuz qilinadigan undoshli so'zlar: ko'rib (ko'rip), qaytdik (qayttik), aytib (aytip), ketayotib (ketayotip), tortib (tortip), terib (terip), olib (olip), obod (obot), borishdi (borishti); qisqa talaffuz qilinadigan i unli bor so'zlar: bilan (blan); talaffuzda tushib qoladigan undoshli so'zlar: baland (balan), do'st (do's), Toshkent (Toshken), farzand (farzan), daraxt (darax).

Bunday so'zlarni yozilgandek o'qish - imloni o'rganishga tayyorlaydi. Bular avval orfografik, so'ng orfoepik o'qitiladi.

Shu kabi so'zlarni o'qish bilan burig'lab utsit malakasi takomillashadi: o'quvchilar talaffuzi va yozilishida farqlanadigan so'zlarni o'qishni o'rganadilar.

Tovush savod o'rgatishning asosi bo'lib xizmat qiladi. Savod o'rgatish davrida so'z va bo'g'inlarni tovush tomonidan analiz va sintez qilish, tovush va ularning artikulyatsiyasini analiz qilish mashqlari o'tkaziladi, diktsiya (ravshan, burro gapirish) ustida ishlanadi, logopedik ishlar olib boriladi. Tovush ustida ishlash bilan ayniqsa, kesma harflardan so'z tuzish kabi sintez qilish usullari birlashib ketadi; tovush va harf urtasidagi munosabatni doimo aniqlab borish o'qish malakalarini shakllantirish uchun ham, imlo tomonidan savodli yozish asosini yaratish uchun ham foydalidir.

S.P.Redozubov tovushni analiz va sintez qilish usullarini to'liq ishlab chiqqan. Shulardan o'zbek tilida savod o'rgatishda quyidagi usullardan foydalaniladi:

Analiz mashqlari:

1.Nutq (gap)dan so'zni ajratish; so'zni aniq talaffuz qilish; bo'g'inlarga bo'lish va bo'g'inlarni aniq talaffuz qilish, urg'uli bo'g'inni ajratish va uni boshqa bo'g'inlardan farqlab, kuchli talaffuz qilib o'qish, maxsus tovushni ajratgan xolda so'zni bo'g'inlab o'qish (aaaa-na, nooon, iiil. Sssa-na, ki-yyyik, iiish)

2.Shu darsda o'rganiladigan yangi tovushni ajratish. Yangi tovushni bnrinchi marta ajratishning bir necha usuli bor:

a)so'zdan tovushni uzun talaffuz qilib ajratish: aaa-na, looo-la, iiii, booo-la;

b)undosh tovushni yopiq bo'g'indan ajratish: Usss-mon, O- limmm, A-miin.

v)sirg'aluvchi undoshni ochiq bo'g'indan ajratish: sssa-na, to-yyyi, zzzi-rak;

g)bo'g'in hosil qilgan bir unlini ajratish: o-na, u-num, o'- tin, ë-rug', o-nta, go-tuk, u-zuk;

d)o'rganilgan tovushni so'z boshida kelgan so'zlardan ajratish (so'zni o'qituvchi aytadi, birinchi tovushni esa o'quvchi aytadi): nok, tok, lola,...;

ye)rasm nomini ifodalovchi so'zni aytish: o'qituvchi nokning rasmini ko'rsatib, noa deydi, o'quvchilar k tovushini qo'shib aytadilar nok.

Asosan, darsda yangi tovush birinchi marta ajratib, talaffuz qilingandan so'ng, shu tovush so'z boshida, o'rtasida, oxirida kelgan va aniq talaffuz qilinadigan so'zlar tanlanib, o'quvchilarga talaffuz qildiriladi: k tovushi uchun: kuz, tik, tok.

O tovushi: olma, osh, O-mon;

D tovushi: dor Odil (so'z oxirida jarangsizlashadigan ozod, hisob kabi so'zlarni tanlash tavsiya qilinmaydi).

3.So'zdagi tovushlarni sanash va ularning nomini tartibi bilan aytish, sonini aniqlash, bo'g'inlarni sanash: Olma - ol-ma - o-l-m-a; to'rtta tovush, to'rtta harf, ikki unli tovush, ikki undosh tovush, ikki bo'g'in.... Bu usuldan o'quv yilining nkkinchi yarmida va keyingi sinflarda ham fonetik tahlil sifatida foydalaniladi.

4. Jarangli va jarangsiz undoshli so'zlarni taqqoslash: dil-til, oldin-oltin, tortosh, moy-choy-loy-boy-soy-toy kabi.

Savod o'rgatishda analiz sintez bir-biridan ajratilmaydi, chunki analiz o'qish jarayonini egallash uchun zamin yaratadi, sintez esa ko'proq o'qish malakasini shakllantiradi.

Sintez mashqlari.<sup>1</sup>

1. Tovush tomonidan analiz qilingan so'zni yoki bo'g'inni talaffuz qilish va uni kesma harfdan tuzish (yozish); shu so'z yoki bo'g'inni o'qish.

2. O'rganilgan undosh bilan (na, no, la, lo, ni, li, bi, si, ma, mo, mi, ta, to, ti, di, do, so, sa, ...) bo'g'in jadvalini tuzish; bo'g'in jadvalini kitobdan yoki matndan o'qish; kesma harflardan bo'g'in jadvalini tuzish.

3. Bola-lola-tola, boy-toy-soy-loy, baxt-taxt, ona-ota, mosh-bosh kabi bir undosh harf bilan farqlanadigan yoki ona-opa, ukki-ikki, osh-ish kabi bir undosh harf bilan farqlanadigan so'zlarni o'qish (bunday so'zlarni o'quvchilarning o'zlari topib o'qishlari mumkin).

4. So'zning boshiga yoki oxiriga bir harf qo'shib, yangi so'z hosil qilib o'qish; ola-lola, osh-bosh, oy-toy, boy, soy, loy; o'roq-so'roq; ol-xol, sol; sava-savat, yelka—yelkan; son-oson; ayiq-qayiq, o'lka-yo'lka; olti-oltin; oldi-oldin,

5. So'z urtasiga harf qo'shib, yangi so'z hosil qilib o'qing; ko'mak-ko'lmak, zirak-ziyrak, tana-tashna, osha-oshna.

6. Bo'g'inlarni almashtirib yangi so'z hosil qilish va o'qish: Gulnor—Norgul.

7. Tovushlarning o'rnini almashtirib yangi so'zni hosil qilish va o'qish: somon-osmon, tilak - kalit, kuy - yuk

8. Tovushni yoki bo'g'inni tushirib qoldirib yangi so'z hosil qilish va o'qish: anor-nor, gulnor-gul, yelkan-yelka, bog'la-bola.

9. Bo'g'in qo'shib yangi so'z hosil qilish va o'qish: bog'-bog'cha, gul-gulzor, bog'bon, dorboz.

Sintetik ishlarning bu usullari tovush ustida ishlatib harf ustida ishlash bilan birga qo'shib olib borishni talab qiladi. Bu ish usullari qiziqarli bo'lib, darsda yarim o'yin xolatini vujudga keltirishga imkon beradi.

Xulosa qilganda, faqat analiz yoki faqatgina sintez bilan kifoyalanib

---

<sup>1</sup> Qosimova K., Matchonov S. Ona tili o'qitish metodikasi. T "Noshir" nashriyoti 2009 yil. 46-bet.

bo'lmaydi, ammo tafakkur faoliyatining u yoki bu turi yetakchi rol o'ynaydi. So'zni analiz qilish bilan o'quvchi so'zni leksik ma'noga ega bo'lgan bir butun sifatida anglaydi, bu - sintezdir; so'z sintez qilinganda uning tovush tarkibiga diqqat jalb etiladi, bu esa analizdir. Umuman, savod o'rgatish jarayonida analitik-sintetik ishlar sistemasi bolaning aktiv fikrlashini ta'minlaydi. Analitik-sintetik ishlar usuligina o'quvchilarning bilish mustaqilligini ta'minlaydi, «muammoli» vaziyat yaratadi, bolalarda kuzatuvchanlikni, ziyraklikni o'stiradi.

Tovush-harf tomonidan analiz va sintezni yengillashtiradigan foydali vositalar sifatida kesma harflar, kesma bo'g'inlar va harf terish polotnosi, shuningdek, harf yoki bo'g'in abak, kadoskopdan foydalaniladi; tovushlarning talaffuzi ustida ishlash uchun, shuningdek, yozib olingan ifodali nutqni (asosan, badiiy asarni) takroriy eshittirish uchun magnitafon (yoki lingofon) kabineti xizmat qiladi.

v) tovushlar artikulyatsiyasi, diktsiya ustida ishlash.

Analiz-sintez ishlari sistemasida tovushning o'zini analiz va sintez qilish, tovushni talaffuz qilish vaqtidagi nutq apparati organlarining xolati va harakatini kuzatish (analiz) va harf bilan ifodalangan tovush va tovushlar birikmasini talaffuz qilish maqsadida nutq organlarini zarur xolatga keltirish (sintez) muhim o'rin tutadi. Masalan: u tovushning analizini olsak: til tanglayga tomon baland ko'tariladi, tanglay bilan til orasida torgina bo'shliq qoladi, lablar bir-biriga yaqinlashib yumaloqlashadi, ovoz hosil bo'ladi;

R tovushining sintezida og'iz ozroq ochiq, tishlar orasida bo'shliq bo'ladi, lablar ozgina kengroq tortilgan, til ozroq orqaga itarilgan va tanglay (tepa)ga tomon baland ko'tarilgan xolatda ovoz eshitiladi, o'tayotgan havo kuchi bilan tilning uchi titraydi.

Sinfda barcha tovushlarning artikulyatsiyasi (hosil bo'lishi)ni ko'rsatib bo'lmaydi, Masalan: afrikatlar (ch, j), chuqur til orqa (k, r, x), bo'g'iz tovushi (h) artikulyatsiyasini ko'rsatish qiyin. Ammo bunday tovushlarning hosil bo'lishini tushuntirish uchun o'qituvchi, o'quvchilar diqqatini jalb qilgan xolda, tovushni talaffuz qilib ko'rsatadi, so'ngra o'quvchilar talaffuz qiladilar. Bunday usulni bir necha bor takrorlagan ma'qul.

Diksiya ustida ishlash o'quvchilar nutqini tushunarli, sof, tiniq, jarangdor bo'lishiga erishishdir. U savod o'rgatish uchun, ifodali o'qish, orfoypik va orfografik malakani, xushovozlik ko'nikmasini o'stirish uchun ham juda muhimdir. Yaxshi diktsiya tovush hosil qiluvchi apparatning egiluvchanligiga bog'liq. Shuning uchun diktsiyani o'stirish mashqlari tovush hosil qiluvchi apparatning elastikligini o'stirishga qaratiladi.

Diksiya ustida ishlash mashqlariga misollar:

1. Baland talaffuzni mashq qilish: Masalan: sara-shira-sara-shira so'zlarini ovozni to qichqiriqqacha balandlata borib, so'ngra ovozni to shivirlashgacha pastlatib talaffuz qilish.

2. Talaffuz tempini mashq qilish. Shu shira-shira so'zlarini sekin talaffuz qilib, tempni asta tezashtira borish.

3. Ayrim undosh tovushlarni, ayniqsa, o'quvchilar nuqson bilan talaffuz qiladigan so'zlarni qayta talaffuz qilish mashqi.

4. Murakkab tovush birikmalarini talaffuz qilishni mashq qilish. Buning uchun tez aytishlardan foydalaniladi. Masalan, G'ani g'ildirakni g'izillatib g'ildiratdi.

Bolalarni so'zlayotganda to'g'ri nafas olishga, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish va o'rgatish zarur. Ba'zi tortinchoq bolalar tovushni talaffuz qilishga uyaladilar. Bunday vaqtda tovushni, so'zni xor bilan talaffuz qildirish, xor bilan o'qitish, tez aytishlarni xor bilan aytirish foydalidir.

## **II BOB. TAYYORLOV DAVRI YOZUV DARSLARIDA O'QUVCHILARNI YOZISHGA O'RGATISHNING SAMARALI USULLARI**

### **2.1. Savod o'rgatishning tayyorlov davri yozuv darslarida zamonaviy usullardan foydalanish.**

Bolalarni o'qish va yozishga o'rgatish, davrida savod o'rgatish darslarini to'g'ri tashkil etilishi ham muhim ahamiyatga ega. Analitik-sintetik tovush metodida o'qish va yozish darslari bir vaqtda, parallel olib boriladi. Bir soatda tovush-harf o'rganilsa, keyingi darsda o'sha tovushni ifodalovchi harfning yozilishi o'rgatiladi, har ikki turdagi darsni to'g'ri tahlil qilish uchun quydagilarga e'tibor beriladi;

1. Ta'limning didaktik jihatlariga e'tibor berilib, uni so'nggi yutuqlar bilan to'ldirib borish.

2. O'quvchilarni yosh va fizialogik jihatlariga e'tibor berish.

3. Ularda mustaqil faoliyatni rivojlantirish ishlarini keng qo'llash.

4. O'qish va yozishning uzviyligiga e'tibor berish.

5. Alifbo va unga qo'shimcha materillardan unumli foydalanish.

Savod o'rgatish jarayoni o'qituvchi uchun ham, o'quvchi uchun ham g'oyat ma'suliyatli davr bo'lib ulardan kuch, g'ayratni, bilimni talab etadi.

Bu davrdagi darslar qanchalik qiziqarli va ta'sirli tashkil qilinsa bolaning savodini chiqarish shunchalik oson kechadi, ularning o'qishni o'rganishga bo'lgan qiziqishlari ortadi. Buning uchun muallimlar bolada motiv hosil qilish va uni rivojlantirishga e'tibor qaratishlari lozim. Motiv kishini biror ish harakatga undovchi, da'vat, turtki. Motiv bolada bilim olish ishtiyoqiga va qiziqish uyg'otadi. O'qituvchilar bundan mohirlik bilan foydalanishlari va o'quvchilarga beriladigan mustaqil ishlar tizimini ishlab chiqishlari foydadan holi bo'lmaydi.

Motiv hosil qilishga ta'limiy o'yinlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki 6-7 yoshli bolalar hayotida maktab davri ancha murakkab davr bo'lib bolalar jiddiy sinov turadi. Bola yangi jamoa-maktab jamoasiga kirib boradi, endi shu jamoaning asosi ekaninni his etishga intizomga yangi sharoitiga moslashishiga majbur

bo'ladi.

Bola kichkina bo'lishga qaramay uni bajaradigan ishlari ko'p. Bular maktab, o'qish, uy vazifalarini bajarish, murakkab vazifalarni bajarish va boshqalar.

Muhimi o'yindan maktabga, kundalik majburiy va uzoq mehnatga o'tish bola hayotida tub burilishdir. Buning o'zi bo'lmaydi; hatto maktabgacha tarbiya muassasalaridan bolalarga ham bu oson emas. Uydan maktabga kelgan bolalar uchun yana ham qiyindir. Ayniqsa 40-45 minutlik darsda o'tirish, tinglash va topshiriqlarni bajarish aqliy mehnat bolani tez toliqtiradi bola o'qishida maktabdan sovushi mumkin.

Shuning uchun ham o'qituvchilar bola faoliyatini qiziqarli tashkil etishga intilishlari motiv hosil qilish va uni rivojlantirishga harakat qilishlari lozim.

Motiv o'z-o'zidan hosil bo'lmaydi. Uni bolalar yoshiga psixologik xususiyatlariga mos didaktik o'yinlar va mustaqil ishlar vositalariga nazariy bo'limlar oson egallanadi; o'quvchilarning bilim olishda qiziqishlari ortadi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol usullar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarni qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bunday usul o'quvchilarni tayyor bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqazishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi. Shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi.

Darlarda yangi pedagogik texnologiyalarni shunday tashkil etilishi kerakki, bunda sinfdagi barcha o'quvchilar faollashishi zarur, ya'ni dars o'tish jarayonida o'quv materiallarining ma'lum bir qismi o'quvchilar tomonidan mustaqil o'rganiladi, so'ngra sinfda xar tomonlama muxokama etiladi. O'qituvchi o'quv jarayoni tashkilotchisi, rahbari, nazoratchisi hamdir. O'quvchining sinfda o'zini erkin xis qilishi va o'quv faoliyati uni emotsional jixatdan qoniqtririshi lozim, ana shundagina u o'zining fikrlarini erkin bayon qila oladi. Yangi pedagogik texnologiyalar xilma-xil bo'lib, qaysi metodni tanlash o'qituvchining o'tayotgan



mavzusi, darsning maqsadi va vazifalariga bog'liq.

Ulardan interfaol mashg'ulot - o'qituvchi va o'quvchilar o'zaro faol ishtirok etadigan mashg'ulot, hamkorlikda kechadigan jarayon.

Interfaol metodlarning qo'llanishi darslarda beixtiyor psixologik o'yin yoki musobaqaga aylantirib, yuqorida tilda olingan bo'sh o'quvchilarni ham bir oz bo'lsada, o'z fikrlarini keng ommaga izhor etishga, umuman sinfda kechayotgan bahs-munozaralarga befarq bo'lmasdan, faol ishtirok etishga undaydi. O'quvchilarni faollashtirish uchun dars jarayonida qo'llaniladigan usullarni to'g'ri tanlash va savollarni aniq tuzish katta samara beradi. Buning uchun darsga, mavzuga qo'yilgan maqsad aniq belgilanib, shu maqsadga erishish yo'li, usuli puxta ko'rib chiqilishi lozim. Demak, o'qituvchi har bir foydalanadigan interfaol usulni o'quvchiga nima berishini oldindan ko'ra olishi va darsni to'g'ri tashkil qilishi kerak. Demak, siz qo'llanmoqchi bo'lgan interfaol usulini ko'rib bo'lgach, o'zingizga kerakli rasm, tarqatma material ko'rgazmailardan keragini qirqib olib konvertga solib qo'yishingiz, mavzularni o'rgatishda ishlatishingiz mumkin.

Interfaol usullardan foydalanib o'tganda quyidagilarga etibor berish lozim.<sup>6</sup>

1. O'quvchilar ishni bajarish uchun bilim, malaka, ko'nikmaga ega ekanligiga ishonch xosil qilaman.

2. Guruhda sust o'quvchilar va bilimi kuchli o'quvchilar teng bo'lishiga e'tibor beraman.

3. Jamoa bo'lib o'rganish yoki muxokama vaqtida shovqin bo'ladi, bunga e'tibor bermayman.

4. Har bir guruhning ishiga e'tibor beraman, kerak bo'lsa yordam beraman.

5. Mustaqil fikr va g'oyalarni olqishlab, rag'batlantiraman.

6. Guruhlarga doimo aniq tushunarli yo'rliqlar beraman. Vazifani tez bajargan guruhga qo'shimcha topshiriq tayyorlab qo'yaman.

7. Guruhlarda ishlayotganda ularni kuzataman, eshitaman. Passiv o'quvchilarni qiziqtirib mavzuga jalb qilishga harakat qilaman.

Interfaol metod sinfda o'tiladigan mavzular yuzasidan muammoli vaziyatlarni

---

<sup>6</sup> Savod o'rgatishda interfaol usullardan foydalanish <http://alifbe.zy.uz/11> Vasikova Shaxnozani maxsus sayti.

muhokama qilishda, "Aqliy hujum", "Kichik guruhlarda ishlash", "Burchaklar metodi", "Kubiklar" bahs-munozara orqali ularni yechimini topishda yaqindan yozdam beradi.

4. Aqliy hujum - muammolarni hal qilishda keng qo'llaniladigan samarali metoddir. U qatnashchilarni o'z tasavvurlari va ijodlaridan foydalanishga undaydi. U berilgan har qanday muammoga ko'p sonli to'g'ri yechimlar topishda yordam beradi. Aqliy hujum muammo yechimini topishda muqobillarini aniqlashga yordam beradi. Dars mashg'ulotlarida o'tiladigan mavzuni, turli xil tomonlarini, qirralarini, qarama-qarshiliklarini ko'rsata olish, sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish, o'zaro bahs-munozara yuritish, muloqotga chaqirish, munosabat bildirib, himoya eta olish, darsning yakunida mavzuning o'quvchilar tomonidan qanchalik qabul qilinganligi, o'zlashtirilganligini bilish, baholash maqsadida ushbu metodni qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu darsning maqsadi - birgalikda o'qitish ko'maklashuvchi uslubiy yo'llar, ya'ni o'quvchilarning jamoada o'qitish yo'li bilan bilim olishlari to'g'risida tasavvur berishdir.

Kichik guruhlariga bo'lish metodikasi - o'qituvchi tajribasi, mahorati, ijodiy yondashuv asosida turli xil usullar asosida bo'lishi mumkin. Masalan: sinf o'quvchilarini ranjitmaslik, kamsitmaslik, ularni estetik did nuqtai nazaridan, kelishmovchiliksiz, guruhlarda bo'lish maqsadida turli xil rivojlantiruvchi o'yinlar asosida yoki masalan; 6 xil rangda, rangli qog'ozdan har xil shaklda, kichkina hajmda, sinf o'quvchilarining jami sonini hisobga olgan holda, oldindan kesma shakl (doira, uchburchak, to'rtburchak, beshburchak va hokazo) tayyorlab qo'yiladi. Kesim shakli o'qituvchi mahoratiga bog'liq, har xil shaklda bo'lishi mumkin. Tayyorlab qo'yilgan rangli kesma shakllarni o'quvchilarga tarqatiladi (bu holda har-bir o'quvchi, ixtiyoriy ravishda o'zi xohlagan rangdagi kesma shaklini tanlab oladi). O'quvchilar tanlab olgan kesma shakldagi ranglar asosida o'qituvchi, o'quvchilarni osongina guruhlariga ajratib oladi. Masalan:

Oq rang        1 -guruh

Yashil rang   2-guruh

Ko'k rang 3 -guruh

Jigar rang 4-guruh

Sariq rang 5-guruh

Qizil rang 6-guruh

**Interfaol usullardan foydalanib dars o'tishda:**

O'quvchilar ishni bajarish uchun bilim, malaka, ko'nikmaga ega ekanligiga ishonch hosil qiling.


Guruhlarga bo'lishda o'quvchilarga "tazyiq" ko'rsatmang.

Har qanday sharoitda ham guruhlar bilan iliq munosabatda bo'ling. guruh a'zolarini kuzating.

Jamoa bo'lib o'rganish yoki muhokama vaqtidagi shovqinga ko'nikish uchun tayyorgarlik ko'ring. Baholash va mukofotlash tizimingiz guruhlar ishlariga qanday ta'sir ko'rsatishi haqida o'ylab ko'ring. Muvaffaqiyatli guruh ish uchun guruhga mukofot tayyorlang (imkon darajasida). Guruhlar uchun berilgan vazifaning bajarilishiga yetarlicha vaqt bering. Boshqa guruhlarda nisbatan vazifasini ertaroq bergan guruhni band qilish yo'llarini o'ylab ko'rig. Mustaqil fikr va g'oyini olqishlang.

Interfaol metodidan foydalanishning maqsadi: o'quvchilarda hozirjavoblik, hissini rivojlantirish, bahs-munozara, erkin fikrlashga «Asoslangan tafakkur tarzini shakllantirishdan iboratdir. Hozirda keng qo'llanib kelayotgan, metodlardan biri bu **"Klaster"** metodi ham o'quvchilarga ixtiyoriy mavzular xususida erkin, ochiq o'ylash va shaxsiy fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Bunda o'quvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlar jarayonida foydalanish mumkin.

Masalan doskaga O'zbekiston so'zi yoziladi va doira ichiga olinadi. Bolalar turli fikrlar bildiradi va doira atrofiga yozishadi



### **“Kim – qayerda?” usuli**

Kim – qayerda usuli barcha fanlarda qo'llanilishi mumkin. Bunda o'quvchilar 30 – 40 nafarni tashkil etsa – o'tirgan joylarida 20 – 25 nafarni tashkil qilsa doska oldida doira shaklida turib olib bajarsa ham bo'ladi. Buning uchun hamma o'quvchilar ko'zlarini yumib turadilar, o'qituvchi o'quvchilarning har birini orqasiga ma'lum bir sozni aks ettiruvchi doirach yoki to'rtburchak shaldagi qizil, ko'k ranglardagi qog'ozlar yopishtirib qo'yadi. Ushbu ranglar asosida o'quvchilar so'zlar hosil qiladilar so'zlarni aks ettiruvchi rasmlar devorlariga ilib qo'yiladi. Ko'zlarini ochishga ruhsat berilgandan so'ng, gapirish ta'qiqlanadi. Ana endi o'quvchilar gapirmasdan, o'zlarining orqalariga qanday yozuv ilinganligini bilmasdan xonaning qaysidir tomonidan o'ziga joy topishi kerak bo'ladi. O'quvchilar gapirmasdan bir – biriga yordam berib joylarini topishadi.

Quyidagicha misol keltirishimiz mumkin:

1 sinf yozuv darslarida tovushlardan soʻz tuzish quyidagicha oʻtkazish mumkin: Buning uchun doiracha va toʻrtburchak shakllar qizil va koʻk ranglarda alohida qilib kesib olinadi va konvertga solib har bir guruhga beriladi. Guruh qatnashchilari konvert ichidagi shakllarni partaga yoyib, soʻng bir chekkadan tartib bilan yigʻishlari kerak. Boshqa guruhlariga nisbatan ishni oldinroq yakunlagan guruhga quyidagi qoʻshimcha vazifalarni berish mumkin.

Qoʻshimcha topshiriqlar:

1. Unli tovushlarni alohida yigʻing.
2. Undosh tovushlarni alohida yigʻing.
3. Ismingizni yigʻishga harakat qiling.
4. Yigʻilgan soʻzlarni boʻgʻinga ajrating.

Berilgan barcha topshiriqlar daftarga doiracha yoki toʻrtburchak qilib chizilib, ichini rangli qalam bilan boʻyab tovushlarni unli va undoshlarga ajratib yozilishi kerak. Hamma vazifalar bajarib boʻlinganidan soʻng guruhlar nima ish bilan shugʻullanganliklari va nimalarni bilib olganliklari soʻraladi va umumlashtiriladi.

Soʻng uyga vazifa beriladi. Unli va undosh doirachalar chizib, boʻyab hosil qilingan soʻzlarning talaffuzini mashq qilib kelish. Uyda shu soʻzlar aks ettirilgan shakllarni yozib kelishadi, keyingi darsda esa bu varaqlar doskada yopishtiriladi va muhokama qilinadi.

Yangi pedagogik texnologiyalar oʻquvchilar bilimlarni oson va toʻla oʻzlashtirishlarida oʻyinlarga alohida eʼtibor qaratadi. Bugungi kunda qoʻllanilayotgan oʻyinlar pedagogik texnologiyalarning bir qismi sifatida darslarni yanada qiziqarli va samarali boʻlishini taʼminlaydi.

Taʼlimiy oʻyinlarni savod oʻrgatish davrida maqsadga muvofiq ravishda va uyushtirish endigina oʻqishni, yozishni oʻrganayotgan bolalarga diqqatlarini asosiy maqsadga qaratgan holda qiziqarli ish bilan band boʻlishlarini taʼminlaydi. Shuning uchun ham savod oʻrgatish jarayonida taʼlimiy oʻyinlardan foydalanishning ahamiyati kattadir.

Oʻyinlar oddiy jismoniy harakatdangina iborat boʻlmay maʼlum ohang, ritm, badiiy soʻz, syujet, kompozitsiyalarga ega boʻlgan bolalarning moddiy

mashg'ulotidir”

Bolalar yoshligidan o'yinlarga ko'nikma hosil qiladilar va bundan o'zlariga estetik zavq oladilar, uni yordamida aqliy va jismoniy kamolotga erishadilar. Bu borada xalq og'zaki ijodi, salmoqli hissa qo'shadi. Bolalar o'yinlarining ruhi, tabiati, haraktiri, noetikasi, ishtirokchilarning hatti-haraklari shu xalqning mehnat va milliy traditsiyalari bilan, turmush kechirish sharoitlari, geografik yashash o'rni, iqtisodiy va siyosiy talablardan rivojlanadi. Sinchiklab qaralsa, bola o'yinida kattalarning xulqi odatlari, mehnat qilish usullari, turmushda ko'zda tutgan maqsadlarning harakteri belgilari ko'rinib turadi. Cho'pon bolasining o'yinlari ma'lum ma'noda cho'ponning kasbini eslatadi desak, xato bo'lmaydi. Qizlar esa aksariyat onalarning uydagi mashg'ulotlarini takrorlaydilar.

Bugungi bolaning orzusi;

Injiner bo'lish, osmono'par binolar, havo kemalari qurish, dengiz-okeanlarning sirini bilish, ularning ixtiyorida turli hil kitoblar, konstruktorlik o'yinchoqlari, o'yinlar gimnastika, futbol, hokkey, tennis, boks, shahmat-shashka, turist bo'lib tog'larga, vodiylarga, uzoq shaharlarga borish va shunga o'xshaganlari, bularning hammasi bolaning ertangi taqdirida, tanlaydigan kasb va hunarida ijobiy iz qoldirishi turgan gap.

O'zbeklar va ular bilan birga yashagan xalqlar va qabilalarning milliy o'yinlari haqidagi dastlabki ma'lumotlar bizgacha XI-asrning buyuk lingvisti, tarixchisi, etnografik Mahmud Qoshg'ariyning “Devoni lug'atu turk “ kitobi orqali yetib keldi. Devon muallifi O'rta Osiyo hududida yashaydigan qabila va xalqlarning milliy tillariga, ayrim so'zlariga izoh berish orqali kishilarning mashg'ulotlarini va hatto bolalarining o'yinlarigacha tilga olgan, ularning qoidalariga ta'rif beradi.

Devondan bir misol keltiraman; Mo'ko'z-mo'ko'z bir xil bolalar o'yini shunday” bolalar tiz cho'kib, dengiz labida o'tiradilar. Sonlari orasida ho'l qum solib to'ldiradilar. Ulardan biri ona boshisi moko'z-moko'z deydi. Qolganlari namoko'z nimaning mo'ngusi (shoxi) deb so'raydilar. U birin-ketin shoxli hayvonlarni sanab ketadi. Uning ketidan ular ham takrorlaydilar. So'ng onaboshi shu nomlar orasidan tuya, eshak kabi shoxi yo'q hayvonlar ismini aytib chalg'itadi.

Bolalarning o'yin tanlashdagi didi o'zgarimoqda. Endi bolalarimiz jamoa bo'lib, ahillik, bir-birini qo'llab-quvvatlash, bilan g'alabani qo'lga kiritib bo'ladigan chaqqonlik, dovyuraklikni talab qiladigan o'yinlarni o'ynashmoqda. O'yinlarda vatanparvarlik ruhi yaqqol ko'rina boshladi. O'yin shartlarida boshlash, tomomlash, jazo, mukofot ham o'zgarishiga uchradi. Bu o'zgarishlari bilan, bolalar o'yin terminalogiyasi, milliy so'zlar hisobiga boyimoqda.








O'yinlar xalq bilim va tajribasining bitmas-tuganmas xazinasidir. Bu xazinani saqlovchilari esa xalqi bolalar o'yinlari materiallarini asosida shu o'yinlaridagi folklor elementlarini tutgan o'rnini aniqlash muhimdir, jumladan, o'yinlar savod o'rgatish davri o'qish darslarida amalga oshirishda muhim ta'limiy ahamiyatga ega savod o'rgatish o'qish darslarida amalgam ashirish bolani ortiqcha jismoniy zo'riqishdan saqlaydi, ulardan o'z kuchiga ishonch tuyg'usini uyg'otadi. Savod o'rgatishda bajariladigan analitik va sintetik mashqlarni ham o'yin tarzida amalga oshirish lozim. Buning zarur o'quv materiallari bor ularning ayrimlarini o'qituvchining o'zi ota onalar bilan birgalikda tayyorlaydi.

Savod o'rgatish davrida o'quvchilar nutq tovushlari, harflar bilan amaliy tanishibgina qolmay bo'g'inlardan so'z tuzish, so'z va qisqa gaplarni o'qish hamda yozishni o'rganadilar. O'quvchilarda birinchi sinfdayoq unli va undosh tovushlarni bir-biridan ajratish, o'xshash undoshlar va ularning harfiy aniqlash yondoshgan unlilarni shuningdek, tovush va bo'g'in tahlili gap tuzish bilan aloqador bo'lgan lug'at imloga doir ishlar, talaffuzdan tushib qoladigan undoshlar, qator keladigan unli va undosh oid imlo ko'nikmalarini o'stirib boriladi. O'quvchilarning nutq tovushlarini to'g'ri talaffuz etishga, so'zni o'rinli va to'g'ri ishlatishga gap va bog'lanishli nutqqa to'g'ri tuzishga, ular orasida erishish uchun o'qituvchi dars davomida qiziqarli o'yinlarining xilma-xil usullaridan foydalanish zarur.

Savod o'rgatishning tayyorlov davrida o'quvchilarni asosan dars jarayonida daftarqanday qo'yish, ruchkani qanday ushlab va dars jarayonida o'zini qanday tutish malakalari hosil qilinadi. Bu davrda o'quvchilar tez charchab va zerikishlari kuzatiladi. Shu o'rinda qiziqarli o'yinlardan foydalanish o'quvchilarni maktabga, o'qishga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga katta yordam beradi. Shu o'rinda aytib

o'tish joizki, savod o'rgatishning tayyorlov davrida yozuv darslari uchun 4 soat vaqt ajratilgan. Bu vaqt ichida o'quvchilat bilan o'yinlar orqali darslarni tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Qiziqarli o'yinlar 3-5 daqiqa davom etishi mumkin. 1-o'yin bu shakllarni to'g'ri ko'chirishga doir. Bunda o'qituvchi tomonidan tayyorlangan shakllar o'quvchilarga tarqatiladi:


Masalan:





Bu o'yin orqali ko'chirish qoidalarini o'zlashtirishga yordam beradi.

2-o'yin O'qituvchi istalgan hayvon rasmini ko'rsatadi.



O'quvchilarga shu rasmdan hayvonning qulog'ini, dumini, ko'zlarini bir chiziqqa tekis qilib terib chizishlari so'raladi.

Bu o'yinlar o'quvchilarning yozish malakalarini hosil bo'lishiga yordam beradi.

3-o'yin, O'qituvchi har bir qator partadan bittadan o'quvchini doska oldiga chiqarib, kesma rasmlardan bittadan beradi. Rasm olgan o'quvchilar avval bu rasmni talaffuz qiladi va unli, undosh tovushlarni aniqlaydi. So'ng rasmdagi meva shaklini avval doskaga keyin esa daftarlariga to'g'ri chiziq ichiga yozadilar.



“Tun-kun” o'yini.

O'qituvchi yoki o'quvchi doskaga meva rasmlari kartochkalarni bir qatorga, sabzavot rasmlari kartochkalarni bir qatorga teradi. O'quvchilardan chiqarib magnitli doskaga so'z tovush rangli doirachalar bo'yicha terdiriladi. Masalan: OLMA unli-undosh-undosh-unli, ikkinch o'quvchi chiqib sabzavotlardan birinchida turgan rasmni nomini talaffuz qiladi va tovushlarni ranglar asosida magnitli doskaga

yopishtiradi. Masalan: KARAM undosh-unli-undosh-unli-undosh.

O'quvchilarni ikki guruhga bo'lib, birinchi guruh mevalar rasmlarini yaxshilab kuzatishlarini, ikkinchi guruh 'sa sabzavot rasmlarini yaxshilab kuzatishlari aytiladi. So'ng o'qituvchi "tun" deydi. Bolalar ko'zlarini yumib, boshini parta ustiga qo'yadi. Rasmlar o'rnini almashtirib bo'lgach "kun" deydi. Bolalar boshini ko'tarib ko'zini ochadi. O'zgargan rasmlar o'rnin qaysi guruh birinchi topsa, qo'lini ko'taradi.

Har bir topilgan rasm talaffuzi tahlil qilinib, daftarlariga doiracha, to'rtburchak shaklda yozib tovushlarni qizil va ko'k ranglarga bo'yaydilar.

Bu o'yin o'quvchilarni sezgirlikka, chaqqonlikka o'rgatadi. O'qituvchi kam vaqt sarflab, ko'proq samaraga erishadi. Kesma rasmlar yordamida turli xilda qiziqarli mashq turlaridan, o'yinlardan foydalanish o'qituvchining izlanishini, ijodkorligi va mahoratiga bog'liqdir.

## **2.2. Ona tili darslarida o'quvchilarni savodli yozishga o'rgatish usullari.**

Kichik yoshdagi o'quvchilar og'zaki va yozma nutqni egallashlarida fonetikadan olgan bilimlarining ahamiyati katta:<sup>1</sup>

a) fonetik bilimga asoslangan xolda 1-sinf o'quvchilari savod o'rganish davrida o'qishni va yozishni bilib oladilar;

b) fonetik bilim so'zni to'g'ri talaffuz qilish (tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, urg'uli bo'g'inni ajratish, orfoepik me'yorga rioya qilish) asosini tashkil etadi;

v) fonetik bilim morfologik va so'z yasalishiga oid bilimlar bilan birga o'quvchilarda qator orfografik malakalar (jarangsiz va jarangli undoshlarning yozilishi) shakllantirish uchun zamin bo'ladi;

g) fonetik bilim gapning ohangiga ko'ra to'g'ri aytish, logik urg'u va gap qurilishidagi pauzalarga rioya qilish uchun zarur;

d) so'zning tovush tomonini bilish, uning ma'nosini tushunish va nutqda ongli qo'llash uchun muhimdir; hozir va hozir, atlas va atlas so'zlari ma'nosidagi farq faqat urg'u orqali ajratiladi. So'zning tovush tomonini tasavvur qilish so'zlarni

---

<sup>1</sup> Abdullayeva Q., va boshqalar "Savod o'rgatish darslari" T., "O'qituvchi" 1996 yil. 18-bet.

talaffuzda farqlash, ayrim so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish va qo'llash uchun zarur.

O'qituvchi boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan barcha fanlarga oid darslarda so'zni aniq va to'g'ri talaffuz qilish ustida doimiy ishlab boradi, shu maqsadda ko'pincha so'zni tovush tomondan analiz qilishdan foydalanadi.

Maktab dasturiga muvofiq, boshlang'ich sinf o'quvchilari fonetik-grafik ko'nikmalar hosil qiladilar: tovushlar va harflar, unli va undosh tovushlar, jufti bor jarangli va jarangsiz undoshlar, jufti yo'q jarangli va jufti yo'q jarangsiz undoshlar; so'zni bo'g'inlarga bo'lish, urg'uli bo'g'inni ajratish ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

Bolalar maktabga kelgunga qadar ham nutqning tovush qurilishini amaliy o'zlashtiradilar, ammo ular maxsus o'qigunlariga qadar so'zni bo'g'inlarga bo'lishni, so'zdagi tovushlarni izchil talaffuz qilishni bilmaydilar. 1-sinf o'quvchilarida so'zni to'g'ri talaffuz qilish, bo'g'inlarga bo'lish, undagi har bir tovushni tartibi bilan aniq aytish ko'nikmasini shakllantirish ustida maqsadga muvofiq ishlash, o'z navbatida, analiz, sintez, taqqoslash, guruhlash kabi aqliy mashqlarni bilib olishga, shuningdek, tovushlarning tabiati, so'z tarkibida bir-biriga ta'siri kabi ayrim elementar bilimlarni o'zlashtirishga imkon beradi.

1-sinfda fonetika va grafikani o'rganishga katta o'rin beriladi, chunki o'quvchilar o'qish va yozish jarayonini shu sinfda egallaydilar. Bu bilimlar keyingi sinflarda, asosan, mustahkamlanadi, takomillashtiriladi.

**Tovushlar va harflar, unli va undosh tovushlarning xususiyatlari bilan tanishtirish.**<sup>1</sup> Tovush murakkab tushuncha bo'lgani uchun boshlang'ich sinflarda unga ta'rif berilmaydi. Shunga qaramay, bolalarda tovush haqida to'g'ri ilmiy tasavvur amaliy mashqlar yordamida hosil qilinadi. Bunda yetakchi usul so'zdagi tovushlarning talaffuzi hamda so'zning leksik ma'nosi so'zdagi tovushlarning tarkibiga bog'liqligi ustida kuzatish hisoblanadi. Masalan, aka, uka, ona, ona, ota, kul, gul kabi bir unli yoki bir undosh bilan farqlanadigan so'zlar har xil leksik ma'noni ifodalaydi.

So'zning tovush tarkibi ustida ishlash savod o'rgatish davridanoq boshlanadi.

---

<sup>1</sup> Qosimova K., Safo Matchonov va boshqalar. "Ona tili o'qitish metodikasi". Toshkent. "Noshir" nashriyoti 2009 yil. 56-bet.

Bolalar bu davrda talaffuz qilingan yoki eshitilgan so'z tovushlardan tuzilishini bilib oladilar. Ular so'zni tovush tomonidan tahlil qilishga o'rganadilar, ya'ni so'zni bo'g'inlarga bo'ladilar, so'zdagi tovushlarni tartibi bilan aytadilar. Bunda tovush tomondan tahlilni harf tomondan tahlil bilan aralashtirmaslikka alohida ahamiyat beriladi. Masalan, qo'l so'zida q, o', l tovushlari, tindi so'zida t,i,n,d,i tovushlari borligini aytishlari zarur.

So'zning tovush tarkibini to'g'ri tasavvur etish undagi harflarni tushurib qoldirmay yoki o'rnini almashtirmay yozish malakasini shakllantirish uchun ham, so'zni to'g'ri talaffuz qilish uchun ham katta ahamiyatga ega. Shuning uchun savod o'rgatishdan so'ng ham, so'zni tovush tomondan tahlil qilish mashqlari yordamida so'zdagi tovushlar tarkibini aniqlash ko'nikmasini takomillashtirish ustida ishlab borish zarur.

Ma'lumki, nutq tovushlari ikki katta guruhga bo'linadi: unli tovushlar va undosh tovushlar. Buni o'quvchilarga tushuntirishda quyidagi belgilari hisobga olinadi:

1) talaffuz qilinish usuli (unli tovush talaffuz qilinganda, xavo oqimi og'iz bo'shlig'idan erkin rashvishda o'tadi, undosh tovush talaffuz qilinganda, xavo og'iz bo'shlig'ida to'siqqa uchraydi);

2) ovoz va shovqinning ishtiroki (unli tovushlar faqat ovozdan iborat, undosh tovushlar talaffuz qilinganda shovqin eshitiladi, ba'zan shovqin va qisman ovoz eshitiladi);

3) bo'g'in hosil qilish xususiyati (unli tovushlar bo'g'in hosil qiladi, undosh tovushlar bo'g'in hosil qilmaydi).

O'quvchilar bu belgilarni yodlab olishlariga yo'l qo'ymaslik, aksicha, 1-sinf danoq bolalarda tovushni talaffuz qilganda, ovoz yoki shovqin eshitilganda nutq organlarining vaziyatini kuzatish ko'nikmasini o'stirib borish lozim. Bunday kuzatishlar 4-sinfda davom ettiriladi va umumlashtiriladi. Tovushlarni o'zlashtirishga bunday yondashish, unli va undosh tovushlarni puxta o'zlashtirishga imkon berishi bilan birga, o'quvchilarning aqliy qobiliyatini o'stirish vazifasini ham bajaradi; xususan, bolalar kuzatilgai hodisaning bir necha belgilarini taqqoslashga,

umumlashtirishga o'rganadilar.

O'zbek tili yozuvi tovush yozuvi hisoblanadi, chunki tovush yozuvda harflar bilan ifodalanadi. 1-sinf o'quvchilari quyidagilarni bilib olishlari lozim: tovushni talaffuz qilamiz va eshitamiz; harfni ko'ramiz, o'qiymiz va yozamiz; harf-tovushning yozuvda ifodalanadigan belgisi. O'quvchilar ko'pincha tovush bilan harfni aralashtirib, xatoga yo'l qo'yadilar.

O'quvchilarda grafik malakani shakllantirish uchun ular quyidagilarni bilishlari zarur:

1) bir undosh harf yozuvda ikki undosh tovushni ifodalashi mumkin (masalan, maktab so'zidagi b harfi p tovushini, maktabim so'zidagi b harfi b tovushini ifodalaydi);

2) jo'ja, jajji so'zlaridagi j (j,) tovushi (jarangli, portlovchi) ham, jurnal, jirafa so'zlaridagi j tovushi (jarangli, sirg'aluvchi) ham bitta j harfi bilan ifodalanadi;

3) tong, keng so'zlaridagi uchinchi jarangli undosh tovush ng ikki harf birikmasi ng bilan ifodalanadi;

) sh ch harf birikmalari ham bir tovushni ifodalaydi: shamol choy.

Jarangli va jarangsiz undosh tovushlar, ularning yozuvda ifodalanishi.

O'quvchilarga jarangli va jarangsiz undosh undoshlar ham tovushlar talaffuzini kuzatishga asoslanib tanishtiriladi. Bunda jufti bor jarangli va jarangsiz undoshlar ajratiladi. Kuzatishda o'quvchilar faol qatnashishi va ularga jufti bor jarangli undosh bilan jarangsiz undoshlarni ajratish qanchalik muhim ekanini yaqqol ko'rsatish uchun faqat bitta undosh tovush bilan farqlanadigan baqir – paqir, gul - kul, dil - til, zina - sina, joy - choy kabi so'zlardagi tovushlarni taqqoslash maqsadga muvofiq. Bunda o'qituvchi o'quvchilar diqqatini b-p, v-f, g-k, d-t, z-s, j-ch tovushlari biri jarangli, ikkinchisi jarangsiz undoshdan iborat tovush juftlarini hosil qilishiga qaratadi, ularning talaffuzidagi farqni amaliy tushuntiradi (jarangli undosh tovushlarda shovqin va qisman ovoz qatnashadi, jarangsiz undoshlarda esa faqat (shovqin eshitiladi); doskaga quyidagicha yozib qo'yadi:

jufti bor jarangli undoshlar: b, v, g, d, z, j, e, t, g; jufti bor jarangsiz undoshlar: p, f, k, t, s, ch, sh, x.

Jufti yo'q jarangli va jufti yo'q jarangsiz undoshlar bilan ham o'quvchilar har xil fonetik sharoitda tovushlarni talaffuz qilishni kuzatish jarayonida tanishtiriladi. Buning uchun o'quvchilar so'z oxirida yoki unli tovushdan oldin kelgan kul, bilim, otam, olmos; quyon, bino; fabrika; tong, singal; qo'y, kiyik kabi so'zlardagi jarangli undoshning talaffuzini taqqoslaydilar va l, m, i, r, ng, y jarangli undosh tovushlar talaffuz qilinganda, ovoz va shovqin eshitilishini, ya'ni jarangli undosh tovush ekanini, bularning jarangsiz jufti yo'qligini (jufti yo'q jarangli undosh tovush ekanini) bilib oladilar. Xuddi shunga o'xshash usulda o'quvchilar q, h undoshlari talaffuz qilinganda, faqat shovqin eshitilishini, jarangsiz undosh tovush ekanini, jarangli jufti yo'qligini (jufti yo'q jarangsiz undosh tovush ekanini) bilib oladilar.

Kuzatish natijasi quyidagicha ko'rinishda doskaga yoziladi (yoki kartonda tayyorlangan ko'rsatma ko'rsatiladi).

jufti yo'q jarangli undoshlar: l, m, n, r, ng, y;

jufti yo'q jarangsiz undoshlar: k, h.

Bolalar jufti yo'q jarangli undosh tovush so'zning oxirida kelganda ham alfavitdagi xuddi shu harf yozilishini, ya'ni talaffuzi doim yozilishiga mos kelishini bilib olishlari yetarli. Jufti bor jarangli undosh tovushlar so'z oxirida kelganda, bunda moslik bo'lmaydi, ya'ni ko'pincha uning jarangsiz jufti talaffuz qilinadi (maktap, ozot, is kabi). Bunday so'zlar o'zbek tilida ko'p bo'lgani uchun 1-sinf danoq o'quvchilarni ularning ayrimlari bilan tanishtirish zaruriyati tug'iladi. Dasturga ko'ra, 1-sinf o'quvchilari b va d jarangli undoshi so'z oxirida kelganda, uning jarangsiz jufti p va t talaffuz qilinishi bilan va bunday so'zlarning yozilishini qanday tekshirish bilan tanishtiradi. Ularning talaffuzi va yozilishini tekshirishda fonetikaga asoslaniladi. O'quvchilar fonetik bilimlariga asoslangan xolda, jufti bor jarangli undoshlarning yozilishini quyidagicha tushuntiradilar: «Kitob so'zi oxirida jufti bor undosh tovushni eshityapman, shuning uchun so'zni tekshirish kerak. Shu undoshdan keyin unli tovush eshitiladigan so'z tanlayman: kitobi, Kitobi so'zida b tovushi eshityapti, shuning uchun kitob so'zida b harfini yozaman».

Bunday muhokama yuritish uchun o'quvchilar quyidagi bilim va ko'nikmalarni egallashlari kerak:

1. Jufti bor jarangli va jarangsiz undosh tovushlarni ajratish.

2. So'z oxirida kelgan jufti bor jarangli undosh tovushning jarangsiz jufti eshinishi, shuning uchun bunday so'zlarni tekshirish kerakligini bilish.

3. Undosh tovush unli tovushdan oldin kelganda, boshqa tovush bilan almashmasligini bilish. Undosh tovushdan so'ng unli tovush kelgan so'z tekshiruvchi so'z bo'la olishini bilish.

4. Tekshiruvchi va tekshiriluvchi so'zdagi undosh harfni taqqoslash (kitobi - kitob, maqsadi-maqсад-maqсадga).

Shunday qilib, o'quvchilar qanday so'zlar tekshirishni talab qilishi va uning sababini, qanday so'zlar tekshiruvchi so'z hisoblanadi va nima uchunligini bilishlari zarur.

O'qituvchi (qanday so'zlar tekshirishni talab qilishini tushuntirish uchun jufti bor jarangli va jarangsiz undosh tovushi bo'lgan so'zlar ustida kuzatish o'tkazadi: maktabim - maktab, Umida - Umid, xat, qop, eg kabi.

O'quvchilar yozilishi talaffuzidan farq qiladigan so'zlarni va so'zdagi jarangsiz undosh tovush o'ziga mos g'arf bilan ifodalanishini taqqoslash bilan so'zning oxirida jufti bor undosh tovush kelsa, u so'z tekshirishni talab qilishiga ishonadilar. Ikkinchidan, tekshirishga tayangan xolda, yozishga imkoniyat yaratish uchun o'quvchilar tekshiruvchi so'zni tekshiriladigan so'zdan doim oldin yozadilar: avlodi - avlod, asbobi - asbob.

**Bo'g'in.** Bo'g'in murakkab tushuncha bo'lgani uchun boshlang'ich sinflarda uning qoidasi berilmaydi. Dasturga ko'ra, o'quvchilarda so'zni bo'g'inlarga bo'lish ko'nikmasini shakllantirish vazifasi talab etiladi. O'quvchilar so'zni bo'g'inlarga bo'lishda so'zda nechta unli bo'lsa, shuncha bo'g'in bo'ladi, degan tushunchaga asoslanadilar. Bu tushunchani ular savod o'rgatish davridayok hosil qiladilar. Bolalar yozilgan so'zdan dastlab unli harfni topadilar, keyin so'zda nechta unli bo'lsa, uni shuncha qism (bo'g'in)ga bo'ladilar.

1-sinfda o'quv yilining birinchi yarmida og'zaki va yozma tarzda bo'g'inlarga bo'lish, shuningdek, o'qituvchi topshirig'iga ko'ra, muayyan bo'g'inli so'z tanlash mashqlari har kuni o'tkaziladi. So'zni bo'g'inlarga to'g'ri va tez bo'lish ko'nikmasini

hosil qilish 1- sinfda o'tkaziladigan muhim mashqlar qatoriga kiradi. O'quvchilar o'qish va yozish jarayonini egallashda mana shu ko'nikmaga tayanadilar. O'zbek grafikasida bo'g'in tamoyili yetakchi tamoyil hisoblanadi. O'quvchi so'zni to'g'ri yozish uchun uni avval bo'g'inlarga bo'ladi. Bo'g'inlardagi tovushlarning o'zaro bir-biriga ta'sirini aniqlaydi, undosh va unli tovushlarni ifodalash uchun zarur harflardan foydalanadi. O'quvchi shunday muhokama yuritadi: «Bayroq» so'zida ikki bo'g'in bor. Birinchi bo'g'inga bay; be, a, ye harflarini, ikkinchi bo'g'inga roq; yer, o, qe harflarini yozaman. O'quvchi so'zni bo'g'inlarga bo'lish, bo'g'indagi har bir tovushning o'rnini, tartibini aniq ko'z oldiga keltirib, bo'g'inlab aytish ko'nikmasiga ega bo'lsa, so'zdagi harflarni tushirib qoldirmay, o'rnini almashtirmay yoza oladi. Shuning uchun bo'g'in ustida ishlashga so'zni bo'g'inlab ko'chirib yozish, bo'g'inlab diktovka bilan yozish (bo'g'inlab izohlab yozish) mashqlarini ham kiritish lozim. Ikkinchidan, so'zni bo'g'inlarga bo'lish ko'nikmasi o'quvchilar uchun so'zning oldingi qatorga sig'may qolgan qismini keyingi qatorga bo'g'inlab to'g'ri ko'chirish uchun zarur. O'quvchilar «So'zlar bir yo'ldan ikkinchi yo'lga bo'g'inlab ko'chiriladi» va «Bir harfdan iborat bo'g'inni oldingi yo'lda qoldirib yoki keyingi yo'lga ko'chirib bo'lmaydi» degan asosiy bo'g'in ko'chirish qoidalarini 1-sinfda o'rganadilar. Oddiy tuyulgan birinchi qoida ham so'zni bo'g'inlarga bo'lish, bo'g'in ko'chirish qoidasiga mos keladigan maktab, Ra'no, singil kabi so'zlar misolida juda ko'p mashqlar bilan mustahkamlashni talab etadi. Bolalar, ayniqsa, singil, ko'ngil, tongi kabi so'zlarni bo'g'inga bo'lishda qiynaladilar, chunki bu so'zlarda bitta jarangli undosh tovush ng harf birikmasi bilan ifodalanadi. Bu so'zlarni bo'g'inga bo'lishda bu ikki harf sing-lim, ko'ng-lim, tong-gi so'zlaridagi kabi oldingi bo'g'inda qolishi, yoki si-ngil, ko'-ngil, to-ngi so'zlaridagi kabi keyingi bo'g'inga ko'chirilishi kerak. (Bir tovushni ifodalagan harfni ikkiga bo'lib bo'lmaydi.) Keyingi qoida esa aka, ota, osha, mudofaa, mutolaa kabi so'zlar misolida yanada kuprok mashq bilan o'rgatish va mustahkamlashni talab etadi. Bu qoidalar keyingi sinflarda yangi murakkabroq so'zlar misolida mustahkamlab boriladi.



### **2.3. O'quvchilarni to'g'ri va savodli yozishlarida xatolar ustida ishlashga o'rgatish.**

Orfografiya o'qitishda o'quvchilarning savodxonlik darajasini o'rganish, ularning orfografik va punktasion xatolarini tuzatish, ularni hisobga olish va baholash, xatolarni tugatish usullari alohida o'rin tutadi.

Maktabda o'tkaziladigan barcha turdagi yozma ishlar o'quvchilarning savodxonligini aniqlash vositasi hamdir. Binobarin o'quvchilarning savodxonligini aniqlashda yozma ishlarning hamma turlaridan foydalanish mumkin.

O'quvchilarning orfografik malakasi haqida tasavvur ta'sir qilish uchun ko'proq kontrol diktant hamda insho va bayonlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Xatolarni tuzatish. O'qituvchi o'quvchilarning yozgan ishini tekshirib, xatolarini tuzatib bormasa, o'quvchi keyingi mashqlarni bajarishga qiziqmaydi, bajarsa ham, xatolarga beparvo qaraydi. O'quvchi o'zining har qanday yozma ishi o'qituvchining e'tiborida bo'lishini sezib turishi kerak. Bu o'quvchiga ilmiy oziq beradi. Xatolarni tuzatishga o'quvchilarning o'zini ham jalb qilish mumkin. Lekin bu yozma ishning harakteriga bog'liq. Sinfda bajariladigan mashqlar ko'pincha sinfnig o'zida o'qituvchi rahbarligida tekshiriladi. Bunda o'quvchi o'z yozganlarini tekshiradi, xatolarini tuzatadi, yoki partada o'tirgan ikki o'quvchi daftarlarini almashtirib, bir-birlarining yozganlarini kuchlari yetganicha tekshiradilar. Bunda o'quvchilarning savodxonlik darajasi inobatga olinadi.

Kontrol harakterdagi ishlar o'qituvchi tomonidan tekshiriladi.

Uyda bajariladigan mashqlar ham tekshirilishi mumkin. Bu quyidagicha bo'ladi:

- A) parta ustiga qo'yilgan daftarni tekshirib chiqish;
- B) biror o'quvchini doskaga chiqarib, unga yozganini o'qitib izohlatish;
- V) har bir gapni navbat bilan o'qitish, yozilishini so'zlatish.

Ko'chirib yozilgan mashqlar, grammatik-orfografik tahlillar mana shu usul bilan tekshirilishi mumkin. Lekin bu o'quvchilar daftarini to'liq tekshirish imkonini bermaydi, shuning uchun daftarlar har ikki uch soat dars o'tilganidan so'ng yig'ishtirib olinib, darsdan so'ng yoki uyga olib ketib tekshirib chiqilishi kerak.

Xatolarni qanday tuzatish kerak?

Xato tuzatish ham ijobiy harakterdagi ishlar jumlasiga kiradi.

Maktabda xatolarni tuzatishning xato yozilgan harflar ustidan qizil siyoh bilan chizib, tepasiga to'g'risini yozib qo'yish usuli keng tarqalgan. Lekin bu usulni hamma vaqt ham samarador deb bo'lmaydi. Agar o'quvchi o'zbekcha so'zlarda (tala-dala) yoki faol lug'atda o'tib ketgan ruscha, forsha va arabcha so'zlarda (maktab-maktab), (g'isht-g'ish), (ruchka-ro'chka), (stol-istol) xato qilsa va bu xatolarni tez payqab olish uquviga ega bo'lsa, harfni o'chirib, to'g'risini ustiga yozib qo'yish usulidan foydalanish mumkin.

Imlosi qiyin so'zlarda (vzvod-vzvot; muzaffar-muzafar kabi) xatoga yo'l qo'yilgan bo'lsa va psixologik tomondan ana shu so'zlarning fotokopiyasini o'quvchi o'z ongida aks ettirish kerakligi e'tiborga olinsa, xato yozilgan so'zni qizil rang bilan o'chirib, ustiga to'g'ri shakli yoziladi.

Xato grammatik formada bo'lsa, harf emas, forma o'chiriladi yoki uning ostiga chiziladi: qurildi-quruldi, kulib-kulub. Chunki o'quvchi qaysi formada xato qilganini o'zi aniqlashi kerak. Ba'zi uslubchilar xatolarni o'qituvchi tuzatsa, o'quvchilar mustaqil ishlardan xoli qilib qo'yiladi deb, bu usulni qoralaydilar. Bu fikr to'g'ri deb bo'lmaydi, chunki tuzatishning bu usuli ham o'quvchilarni mustaqil ishlashga undaydi: o'quvchi maktab degan so'zda b o'rniga p yozgan bo'lsa, o'qituvchi uni tuzatib, o'quvchida shu qoidaga mos keladigan bir qancha so'zlar (kitob, bob, to'lib, o'qib, ayab, boylab) topishni vazifa qilib beradi. Lekin xato tuzatishning bu usulini yagona usul deb ham bo'lmaydi. Ayrim xollarda xato tuzatishning ko'proq mustaqil ishlashini talab qiladigan usullaridan ham foydalanish mumkin. Xatoni to'g'irlamasdan chizib qo'yish, xato yozilgan harfning yoki shu harfni o'z ichiga bo'g'in yoki so'zning tagiga chizib qo'yish, qaysi qatorda xato qilingan bo'lsa, o'sha qator hoshiyasiga belgi qo'yish ham xato tuzatish usullaridir. Lekin xato tuzatishda bu usullar aralash qo'llanmasligi kerak. Bunda o'quvchilarning yosh xususiyati, qoidaning sodda yoki murakkabligi, o'quvchilarga o'zlashish, ularni mustaqil ishlashga yo'llash darajasi hisobga olinishi kerak.

Orfografik xatoning oldini olish. Orfografiya o'qitish tizimi butunicha imlo

xatolarining oldini olishga qaratilgan.

Yozilishi qoida bilan izohlanadigan orfogrammalarda bo'ladigan xatolarning oldini olish uchun bunday so'zlarni doskaga yozib, ularning yozilishiga o'quvchilarning diqqatini jalb qilinadi: Masalan, b tovushining yozilishida xato bo'lmasligi uchun, o'qituvchi b va p tovushli bir qancha so'zlarni doskaga yozib, ularning imlosini esda saqlab qolish kerakligini ogohlantiradi.

Xatolarning oldini olishda turli ko'rgazma va jadvallardan ham foydalaniladi. Ko'rgazmalar mavzuga doir yoki umumiy bo'lishi mumkin. Mavzuga doir ko'rgazmani ma'lum qoida, masalan b undoshi, jarangli-jarangsiz tovushlar, x va h undoshlari bo'yicha tayyorlab, sinf devorida osib qo'yiladi. Ko'rgazma umumiy bo'lganda, unga o'quvchilar ko'p xato qiladigan va har xil qoidaga xos so'zlar kiritiladi.

Ko'rgazmalar 2 xil mavzuga doir ko'rgazmalar, umumiy ko'rgazmalarga bo'linadi.

**O'quvchilarning o'z xatolari ustida ishlashi.**<sup>1</sup> Xatolar ustida o'quvchining o'zi ham ishlaydi. Bunda o'quvchilarni o'zlariga xatolarining sabablarini yozma va og'zaki izohlatish, qaysi qoidada xato qilingan bo'lsa, unga mos so'zlar toptirish qoidani takrorlatish usulidan keng foydalanish mumkin.

Ba'zi o'quvchilar xato yozilgan so'zlarni bir necha bor yozdirish usulidan ham foydalanadilar. Lekin bu hamma vaqt ham samarali natijani beravermaydi. Bu usuldan yozilishi ma'lum qoida bilan izohlanmaydigan so'zlarni to'g'ri yozishga o'rgatishda foydalanish mumkin.

O'quvchilardan vaqti-vaqti bilan qaysi qoidalarda xatoga yo'l qo'yganini, buni tuzatish sohasida nimalar qilinganligini so'rab turish mumkin.

Ba'zan bir o'quvchining daftarini ikkinchi o'quvchiga, tekshirtirish usulidan ham foydalaniladi. Bu o'quvchilarning qiziqishini ortiradi. Shunday hollar ham bo'ladiki, o'quvchi o'zi ma'lum so'zni xato yozadi-yu, lekin o'rtog'ining daftarida shunday yozilgan so'zning xato ekanligini topadi. Shunga extiyot bo'lishi kerakki,

---

<sup>1</sup>Qosimova K., Safo Matchonov va boshqalar. "Ona tili o'qitish metodikasi". Toshkent. "Noshir" nashriyoti 2009 yil. 65 bet.

o'quvchilar o'rtoqlarining xatolarini tuzutaman deb, boshqa xatoga yo'l qo'ymasinlar, daftarlarni bekorga bo'yamasinlar. O'quvchi u yoki bu so'zning xato yozilganligiga to'la ishonsagina, uni to'g'irlash kerakligini anglasin.

O'quvchilar daftar tekshirayotganda, o'qituvchi sinfda aylanib yurib ayrim o'quvchilarga maslahat beradi. Tekshirish uchun berilgan muddat tugagach, o'quvchilar topgan xatolarini aytadilar. O'quvchi xato yozilgan deb hisoblagan so'zini, alohida qog'ozga yozadi, oxirida o'qituvchi ishtirokida buni aniqlab, keyin uni tuzatadi.

Xatolarni tuzatishda o'quvchining uyida mustaqil ishlashi juda katta ahamiyatga molikdir. Yo'l qo'yilgan xato bilan bog'liq qoidani o'qib kelish, unga mos mashqni bajarish, lug'at ustida ishlashning natijasi beqiyos kattadir.

**Ko'p xato qiladigan o'quvchilar bilan ishlash.** O'quvchi ko'p xato qilib, past baho olaversa, ruhiy tushkunlikka tushib savodlilikka bo'lgan ishonchini yo'qotib qo'yishi mumkin. Bunday xol yuz bermasligi uchun o'qituvchi o'quvchining ruhini ko'tarishi, savodli bo'lib ketishga ishonch hosil qilishi, uning irodasini tarbiyalashi, unda orfografik mashg'ulotlarga qiziqish uyg'otishi kerak.

Ko'p xato qiladigan o'quvchilar bilan ishlash tizimi bunday o'quvchilarning orfografik malakasiga bog'liq bo'lib, yakka yondashuvni talab qiladi.

Ko'p xato qiladigan o'quvchilar bilan ishlashni ayrim qoidalarni so'rashdan boshlagan ma'qul. Ma'lum bir qoidaning mustahkam o'zlashganligi haqida ishonch hosil qilgach, navbatdaxisiga o'tiladi. Shu asosda mashg'ulot asta-sekin murakkablashib boradi.

Mana shu yo'l bilan ko'p xato qiladigan o'quvchilar orfografiyani puxta o'zlashtirib boruvchi o'quvchilar bilan tenglashtiriladi. Ish jarayonida o'quvchining bu sohada erishgan yutuqlarini uni o'ziga sezdirish, buning sabablarini birga muhokama qilish ham muhimdir.

### **Punktasion xatolar va ularni bartaraf etish yo'llari.**

Tinish belgilarini qo'llashda turli hil usullar bor:

1. Tinish belgilarining qo'yilishi oxang usuli asosida belgilanadi.
2. Tinish belgilarining qo'yilishi faqat mantiq va sintaktik asosda belgilanadi.

Punktuasiya usullari tilning fikriy va grammatik vositalarini hisobga olish asosida tuziladi (oxang ham shunga kiradi). Har qanday oxang va to'xtalish yozuvda belgi bilan ko'rsatilavermaydi, balki nutqning fikriy tomoniga ta'sir eta oladigan, ma'lum grammatik ahamiyatga ega bo'lgan to'xtalish va oxanglargina belgi bilan ko'rsatiladi. Masalan boshlang'ich sinf ona tili darsida «Gap» mavzusi bor. Unda darak gapning oxiriga nuqta, so'roq gaplarning oxiriga so'roq, undov gaplar oxiriga undov belgisi qo'yilishi o'quvchilar ongiga singdiriladi. Ularni oxang orqali farqlash tushuntiriladi. Demak, tinish belgilarining bir turi og'zaki nutqda oxang orqali berilgan holatni ifodalaydi. Tinish belgilarining boshqa turi og'zaki nutqda ohang bilan emas, balki boshqa grammatik vosita bilan ifodalangan holatni bildiradi. Masalan, undalma gap bo'laklari bilan grammatik tomondan bog'lanmagani uchun vergul orqali ajratiladi. Tinish belgilarining yana boshqa bir turi na ohang yordami bilan, na boshqa grammatik vositalar bilan ifodalanishi mumkin bo'lmagan holatlarni ko'rsatadi (masalan, qo'shtirnoq). Bular to'g'ridan-to'g'ri nutqning fikriy jihatiga asoslanadi: Men «Zaynab va Omon»ni o'qidim.

Punktuasiya o'qitishda onglilikni ta'minlash uchun o'qituvchi sintaksisdan o'tiladigan mavzularni punktuasiyaga bog'lashi juda zarur. O'quvchi har bir gapning mazmuniga to'la tushungan bo'lishi bilan birgalikda, undagi tinish belgining nima uchun ishlatilganligi, uning sintaktik vazifasi nimadan iborat ekanligini aniq tasavvur qilib turish kerak. O'quvchi o'rgangan punktuasiya qoidalarini yozuvda va og'zaki nutqda to'g'ri qo'llay bilishi kerak.

Punktuasiya o'rgatish oxang kuzatishlar, to'xtalish va mantiqiy urg'u ustida kuzatish ishlari bilan bog'lab olib boriladi. Punktuation savodlilik - bu, tinish belgilarini o'z o'rnida to'g'ri qo'llashdangina iborat bo'lmasdan, shu bilan birga, matnni ifodali o'qiy bilish ham demakdir. Bexato o'qiy olgan bola, albatta bexato ham yozishi kerak. Savodxonlik-boshlang'ich ta'lim dasturining asosiy maqsadlaridan biridir.

## TAJRIBA-SINOV ISHLARI VA NATIJALARI



Ushbu bitirub malakaviy ishning nazariy qismini amaliyotga tadbiiq etish maqsadida Tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tajriba-sinov ishlari asosan uch bosqichda amalga oshirildi.




1. Tajriba ishlariga tayyorgarlik.
2. Tajriba ishlari.
3. Tajriba ishlari tahlili.

**1. Tajriba ishlariga tayyorgarlik.** Tajriba ishlariga tayyorgarlik asosan tajriba uchun obyekt tanlash, ularni qo'yilgan muammo yuzasidan xolatlarini o'rganish, hamda natijalarni solishtirish uchun turli sinovlar o'tkazishdan iborat bo'ldi. Tajriba uchun men obyekt sifatida Namangan shahridagi 5-umumta'lim maktabining 1-«a» va 1-«b» sinflarini belgilab oldim. So'ngra ushbu sinf o'qituvchisi hamda boshlang'ich sinfning boshqa o'qituvchilari bilan o'quvchilarni yozishga o'rgatishdagi masalalar yuzasidan savol-javob o'tkazdim. Ular quyidagi savollarga javob berdilar:

- o'quvchilarni yozishga o'rgatishda qanday muamolarga duch kelgansiz?
- ularni savodli yozishlari uchun qanday ishlarni amalga oshirasiz?
- o'quvchilarni savodli yozishga o'rgatishda qanday usullardan foydalanasiz?
- savodli yozish malakalarini rivojlantirish uchun qo'shimcha qanday choralar ko'rasiz?

O'qituvchilar bilan olib borilgan ushbu tarzdagi anketa-so'rov ishlaridan so'ng har ikki sinfdan ularni qay darajada savodli yozish malakalarniga ega ekanliklarini tekshirish maqsadida maxsus tayyorlangan tarqatma materiallar asosida o'quvchilarning yozish malakalari o'rganildi. Bu rasmlarni o'quvchilar kuzatib undagi shakllarni to'g'ri chiziq daftarlariga joylashtiradilar. Masalan, doiracha, uchburchak, burchak, tayoqcha, oval, yulduzcha, to'liqinsimon chiziq, romb va hokazo.





Ushbu jarayonni o'rganish maqsadida quyidagi mezon asosida ish olib borildi:

1. Oquvchilarning rasmdagi narsalar nomini talaffuz qilishlari va tovushlarni to'liq farqlashlari;
2. Rasmdan shakllarni ajratib yoza olishlari;
3. To'ri chiziqqa unsurlarni bir tekisda yoza olishlari;
4. Ilmoqli unsurlarni bir-biriga ulab yoza olishlari.

Har ikkala sinfdan olingan natijalar quyidagicha bo'ldi:

Jadvalda har ikkala sinfni o'zlashtirish ko'rsatkichlari tajriba-sinov holatini ko'rishimiz lozim.



## TAJRIBADAN OLDINGI NATIJA

### 1-JADVAL

BELGILANGAN MEZONLAR								
T/R	Oquvchilarning rasmdagi narsalar nomini talaffuz qilishlari va tovushlarni to'liq farqlashlari;		Rasmdan shakllarni ajratib yoza olishlari;		To'ri chiziqqa unsurlarni bir tekisda yoza olishlari;		Ilmoqli unsurlarni bir-biriga ulab yoza olishlari.	
	Yaxshi natija	O'rtacha natija	Yaxshi natija	O'rtacha natija	Yaxshi natija	O'rtacha natija	Yaxshi natija	O'rtacha natija
1-A 36 nafar	23 64%	13 36%	21 58%	15 42%	16 44%	20 56%	20 56%	16 44%
1-B 34 nafar	20 58%	14 42%	21 62%	13 38%	12 35%	22 65%	18 53%	16 47%

Ushbu natijalar olinib tahlil qilingach Tajriba-sinov ishlari o'tkazildi.

**2.Tajriba ishlari.** Yuqoridagi tahlillar asosida tajriba-sinov ishlari boshlab yuborildi. Tajriba-sinov ishlarini boshlashdan oldin 1-«a» sinfini tajriba sinfi, 1-«b» sinfini kuzatuv-nazorat sinfi qilib belgilab olindi.

Tajriba ishlarida o'quvchilarning yozuv savodxonligini oshirish bo'yicha quyidagi ishlarni amalga oshirish belgilab olindi:

- o'quvchilarni yozishda duch keladigan muammolarini aniqlash.
- ular yozish jarayonida yo'l qo'yayotgan xatolarni o'rganish.
- ushbu xatolarni bartaraf etish bo'yicha kerakli usullarni va choralarni ishlab chiqish.

O'quvchilar yuqorida aytib o'tilganidek, asosan partada noto'g'ri o'tirish, daftarni to'g'ri qo'ymaslik, daftar bilan o'quvchining ko'zi orasidagi masofa hamda eng ko'p uchraydigan ruchkani noto'g'ri ushlab kabi xatolarga yo'l qo'yadilar. Shu bilan birga o'quvchilar bilan har darsda ularga berilgan topshiriqlar yuzasidan xatolar ustida ishlash daqiqalari o'tkazildi. Bunday daqiqalarda o'quvchilar o'zlari yo'l qo'ygan xatolarni o'qituvchi yordamida o'rganib chiqadilar va to'g'irlab boradilar. O'qituvchi asosiy e'tiborni eng ko'p yo'l qo'yilgan xatolar

(chiziqdan chiqib ketish, daftarni bo'yash, shakllarni o'ta kichkina yoki ota katta yozish) ga qaratadi.

Tarqatma yoki doskadagi shakllarni ko'chirib yozish ham o'quvchilarning yozish malakalarini mustahkamlashga xizmat qildi. O'quvchilarni yozishga o'rgatishda turli didaktik materiallarning o'rni ham juda katta bo'ldi. Didaktik o'yinlar orqali o'quvchilar xatosiz va to'g'ri yozishga o'rganib borishlari bilan birga darslarda faol qatnashishlariga erishildi. O'quvchilar asta-sekin yozish malakalarni o'zlashtirishlari orqali mashqlar bajarishda kamroq xatolarga yo'l qo'ygan xolda chiroyli yozishni o'rganib bordilar.

Ushbu tarzda olib borilgan tajriba-sinov ishlaridan so'ng qayta sinov ishlari o'tkazilib o'quvchilarini yozuv malakalari tekshirib ko'rildi. Qayta sinovda har ikki sinf o'quvchilariga hayvon qismlarini, meva va sabzavotlar shakllarini chizish va ularni to'g'ri chiziqqa joylashtirish topshirildi. Bu natijalarni yuqoridagidek 5 ballik tizimda baholandi.

## TAJRIBADAN KEYINGI NATIJA

### 2-JADVAL

BELGILANGAN MEZONLAR								
T/R	Oquvchilarning rasmdagi narsalar nomini talaffuz qilishlari va tovushlarni to'liq farqlashlari;		Rasmdan shakllarni ajratib yoza olishlari;		To'ri chiziqqa unsurlarni bir tekisda yoza olishlari;		Ilmoqli unsurlarni bir-biriga ulab yoza olishlari.	
	Yaxshi natija	O'rtacha natija	Yaxshi natija	O'rtacha natija		Yaxshi natija	O'rtacha natija	Yaxshi natija
1-A 36 nafar	27 75%	9 25%	24 67%	12 33%	21 58%	15 52%	25 69%	11 31%
1-B 34 nafar	22 68%	12 32%	26 76%	8 24%	16 47%	18 53%	21 62%	13 38%

Endi bu natijalarni biz tajriba oldi xolati bilan taqqoslasak tajriba sinfidagi natijalar oldingisidan ancha ortganligini ko'rishimiz mumkin. Buni quyidagi jadvalda yaqqol ko'rishimiz mumkin.

### TAJIRIBA SINFINING TAJRIBADAN OLDINGI VA KEYINGI NATIJALARI

3-JADVAL

BELGILANGAN MEZONLAR								
T/R	Oquvchilarning rasmdagi narsalar nomini talaffuz qilishlari va tovushlarni to'liq farqlashlari;		Rasmdan shakllarni ajratib yoza olishlari;		To'ri chiziqqa unsurlarni bir tekisda yoza olishlari;		Ilmoqli unsurlarni bir-biriga ulab yoza olishlari.	
	Yaxshi natija	O'rtacha natija	Yaxshi natija	O'rtacha natija		Yaxshi natija	O'rtacha natija	Yaxshi natija
1-A 36 nafar	23 64%	13 36%	21 58%	15 42%	16 44%	20 56%	20 56%	16 44%
1-A 36 nafar	27 75%	9 25%	24 67%	12 33%	21 58%	15 52%	25 69%	11 31%

Solishtirma bosqichda ko'rinib turganidek, tajribagacha va tajribadan keyingi natijalarda 1-mezon bo'yicha 64 % dan 75% gacha ko'tarilganligi aniqlandi. 2-mezon bo'yicha 58% dan 67% gacha ko'tarilganligi aniqlandi. 3-mezon bo'yicha 44% dan 58% gacha ko'tarilganligi aniqlandi. 4-mezon bo'yicha 56% dan 69% gacha ko'tarilganligi aniqlandi. 5-mezon bo'yicha 61% dan 75% gacha ko'tarilganligi aniqlandi.

Yuqorida keltirilgan jadvallar ko'rsatkichlaridan ko'rinib turibdiki, olib borilgan tajriba-sinov ishlari o'zining samarali natijalarini berdi va o'quvchilarni yozishga o'rgatishda yuqoridagi usullardan foydalanish orqali biz o'z oldimizga qo'ygan maqsadimizga erishishimiz mumkin ekan.

Yuqoridagi natijalardan kelib chiqib quyidagi xulosa va tavsiyalarni berdim.

## XULOSA VA TAVSIYALAR

Ma'lumki yozish san'ati yozuvchining fe'l atvori, bilimi va qanchalik darajada mukammal insonligidan dalolat berib turadi. Insonlarning yozuvi orqali ular qay darajada savodxon ekanliklarini bilib olishimiz mumkin. Yozuvlar yuqoridagilardan dalolat berar ekan, demak biz o'quvchilarni chiroyli va savodli yozishga o'rgatish orqali ularda yuqoridagi sifatlarni shakllantirishga erishishimiz mumkin. O'quvchilar savodli yozish orqali e'tiborli, irodali, tartibli bo'lishga o'rganib boradilar. Bu esa jamiyatimizda shakllanayotgan har bir shaxsga tegishli bo'lgan fazilatlardan biridir.

O'quvchilarni yozishga o'rgatishga bag'ishlangan ushbu bitiruv malakaviy ishimda men ana shu masalani ko'rib chiqdim. Unda asosan o'quvchilarni yozishga o'rgatish masalalari, yozuv darslarida savodli yozishga o'rgatish usullari va boshqa masalalarga e'tibor berildi.

Ilmiy metodik adabiyotlar. Tadqiqot jarayonida olingan natijalar tahlili hamda boshlang'ich ta'lim jarayoni kuzatishlar asosida quyidagi xulosa va **tavsiyalarni** taqdim etishni maqsadga muvofiq deb hisobladim.

Kichik yoshdagi o'quvchilarga beriladigan til ta'limi va tarbiyasi o'zgacha yo'nalish, o'zgacha usullar bilan boyitib, til sofliqi, adabiy til meyorlarini singdirish kabi zaruriy mashqlar vositasida olib boriladi. Shuningdek, ona tili fanini o'qitishda pedagogik texnologiyalarning ilg'or usullariga tayanib ish ko'rmoq joiz hamda bolalar idrok eta oladigan topishmoqlar tizimini ishlab chiqish va qisman maxsus o'quv jarayoni mazmuniga kiritilish zarur. Boshlang'ich ta'limning samaradorligini oshirish omillaridan biri bolalarning savodli yozish malakalarini tarbiyalashdir. Bu 1-sinfdan boshlanib, yuqori sinflarda ham davom ettirilishi lozim.

Oquvchilarni savodli yozishga o'rgatishda quyidagilarga amal qilish orqali samaradorlikka erishishimiz mumkin:

- bolalar ruhiyatini chuqur o'rganib, ularning har biriga o'ziga xos munosabatda bo'lish;
- dars jarayonida, darsdan keyingi mashg'ulotlarda bolaning doimo yaxshi

kayfiyatda bo'lishini ta'miniashga;

- o'quvchilar yozish jarayonida eng ko'p yo'l qo'yayotgan xatolarga e'tibor berish;

- savodli yozish daqiqalarini otkazish;

- o'quvchilarni o'z xatolari ustida ishlashga o'rgatish;

- turli didaktik o'yinlardan foydalanib yozish malakalarini oshirish;

Darslarga mana shu tarzda yondoshish orqali biz o'quvchilarni savodli yozishga o'rgatib borishimiz mumkin bo'ladi deb hisoblayman.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :**

### **I. IJTIMOIIY-SIYOSIIY**

1. Karimov I. A. “Ona yurtimiz baxtu iqboli va kelajagi yo’lida xizmat qilish - eng oily saodatdir”. T., “O’zbekiston”. 2015 yil. 8-9 betlar.
2. O’zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimidagi ma’ruzasi. Xalq so’zi gazetasi. 2016- yil 7-dekabr.
3. Karimov I. A. “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo`lini izchil davom ettirish-taraqqiyotimizning muhim omilidir”, “Ishonch” gazetasi, 2010 yil 8 dekabr.
4. Karimov I. A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi.- T.: O’zbekiston, 2010. 56 bet.
5. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch”. T. “Ma’naviyat” nashriyoti., 2008 y. 280 bet.
6. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi halq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T., “O’zbekiston”., 2000 y. 123 bet.
7. Karimov I.A. “Barkamol avlod orzusi”. T., “Sharq”., 1999 y. 181 bet.
8. Karimov I. A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari. – T.: “O`zbekiston” nashriyoti., 2009. 56 bet.
9. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 25 avgustdagi “Milliy g’oya targ’iboti va ma’naviy-ma’rifiy ishlarining samaradorligini oshirish to’g’risida”gi PQ-451 sonli Qarori.

### **II. ILMIIY-USLUBIIY**

10. Davlat Talim Standartining boshlang’ich ta’lim o’quv dasturi (yangi tahrir) 2010 y. 28 bet.
11. Azizxo’jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.

- Toshkent. 2006. Fan. 180 bet.
12. Abdullayeva Q., va boshqalar “Savod o’rgatish darslari” T., “O’qituvchi”1996 yil. 18-bet.
  13. Bo’ri Ziyamammedov, Mamarajab Tojjiyev. Pedagogik texnoloya-zamonaviy o’zbek milliy modeli. O’zbekiston. Toshkent. 2009. 234 bet.
  14. Ma’qulova B. va boshqalar., «Husnixat» Toshkent. «O’qituvchi» nashriyoti, 1997 yil.
  15. Safarova R., M. Inoyatova, M. Shokirova, L. Shermamatova “Alifbe” (qayta ishlangan 8-nashri). Toshkent. “Ma’naviyat” 2010 yil.
  16. To’hliyev. B. Nutqiy faoliyat va adabiy ta’lim. Og’aki va yozma nutq muammolari. T-2010 6-sahifa.
  17. G’affarova T. va boshqalar. Boshlang’ich sinflar uchun ona tili va o’qishdan didaktik materiallar. “Ilm-ziyo” nashriyoti., T. 2004 y. 77 bet.
  18. G’ulomova X. va boshqalar. «1-sinfda ona tili darslari», T., «Sharq» nashriyoti., 2003 yil. 96 bet.
  19. Husanboyeva.Q Adabiyot-ma’naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omillari. “A. Navoiy” nashriyoti. 2009 y, 25-bet.
  20. Yusupov. M. O’qish va yozuv darslari samaradorligini oshirish, Namangan., 1990 y, 84- bet.
  21. Yusupov M., Boshlang’ch sinf o’qish darslarining o’ziga xos xususiyatlari. Namangan. 1992 y 36- bet.
  22. Qosimova K., Safo Matchonov va boshqalar. “Ona tili o’qitish metodikasi”. Toshkent. “Noshir” nashriyoti 2009 yil. 365 bet.

### **III. INTERNET MA’LUMOTLARI**

23. [www.tayi.uz /artikle/artikle 48.dos](http://www.tayi.uz/artikle/artikle48.dos)
24. [www.google.uz](http://www.google.uz) ([www.rambler.ru](http://www.rambler.ru))